BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/04.06.2021.Fil.72.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

FAYZULLOYEV OTABEK MUXAMADOVICH

INGLIZ VA O‘ZBEK BOLALAR FOLKLORI JANRLARI TIPOLOGIYASI

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

FILOLOGIYA FANLARI DOKTORI (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Buxoro – 2025

UDK 811`44:398

Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора филологических наук (DSc)
Contents of the dissertation abstract for a Doctor of Science degree (DSc)

Fayzulloyev Otabek Muxamadovich
Ingliz va o‘zbek bolalar folklori janrlari tipologiyasi.....3

Fayzulloev Otabek Mukhamadovich
The Typology of English and Uzbek Children's folklore genres 31

Файзуллоев Отабек Мухамадович
Типология жанров английского и узбекского детского фольклора 61

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works.....66

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/04.06.2021.Fil.72.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

FAYZULLOYEV OTABEK MUXAMADOVICH

INGLIZ VA O‘ZBEK BOLALAR FOLKLORI JANRLARI TIPOLOGIYASI

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

FILOLOGIYA FANLARI DOKTORI (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Buxoro – 2025

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2023.4.DSc/Fil727 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengashning web-sahifasida (www.buxdu.uz) va «Ziyonet» Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:	**O‘rayeva Darmon Saidaxmedovna** filologiya fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Axmedov Oybek Saporbayevich** filologiya fanlari doktori, professor
	Jo‘rayeva Malohat Muxammadovna filologiya fanlari doktori, professor
	Qayumov Olim Sadiriddinovich filologiya fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	**Samarqand davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi DSc.03/04.06.2021.Fil.72.03 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «21» iyun soat 09⁰⁰dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko’chasi, 11-uy. Tel.: (0 365) 221-29-14; faks: (0 365) 221-57-27; e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (612 raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: (0 365) 221-25-87).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «26» may kuni tarqatildi.

(2025-yil «26» may dagi 25-17- raqamli reestr bayonnomasi).

M.K.Baqoyeva
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi o‘rinbosari, filologiya fanlari doktori, professor

Z.I.Rasulov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari doktori, professor

F.M.Xajiyeva
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (fan doktori [DSc] dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon folklorshunosligida bolalar folklori va uning turli janrlariga ilmiy munosabat, jahon xalqlari og‘zaki badiiy ijodida bolalar folklori o‘ziga xos mavzulari, obraz va motivlar tarkibi, ijodkorlari va ijrochilarini tadqiq qilish masalalariga alohida e’tibor qaratib kelinmoqda. Asrlar davomida avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan va yosh avlod tarbiyasida muhim ma’naviy-ruhiy ta’sirga ega bolalar folklori namunalari har bir xalqning madaniy hayot tarzi, milliy dunyoqarashi, ijtimoiy muhiti bilan bog‘liq holda yaratilgan bo‘lsa-da, ularning genezisi, tasnifi va badiiy xususiyatlarida umumbashariy poetik tafakkurga xos yaqinliklar borligi kuzatiladi. Shu yaqinlik asoslarini qiyosiy-tipologik jihatdan ochish dunyo bolalar folklori badiiyatiga xos mifo, etno va lingvopoetik, tarixiy, nazariy, dinamik poetika taraqqiyot xususiyatlarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyo qiyosiy folklorshunosligida turli yoshdagi bolalar folklorini yig‘ish va arxivlashga qiziqish, uni nashr etish, paydo bo‘lish asoslarini, o‘rganilish tarixi va nazariy masalalarini ko‘rib chiqish, poetikasini tahlil qilish, janrlarining o‘ziga xosligi, ijrochilik san’ati, yozma adabiyot, kinematografiya, postfolklor bilan bog‘liq tomonlarini atroflicha tadqiq qilingan. Bu esa jahon miqyosida bolalar folklorining tipologik belgilarini aniqlashdan tashqari insoniyat badiiy-estetik tafakkuri taraqqiyotining umumiy qonuniyatlarini asoslash, ingliz va o‘zbek bolalar folklorini kognitiv-pragmatik kesimda o‘rganish, ularning badiiy-estetik tabiati, kelib chiqish tarixiy ildizlari, zamonlar osha poetik tadriji, o‘ziga xos milliy xususiyatlari, tilini zamonaviy folklorshunoslik tamoyillari va metodlari asosida aniqlash, janriy mohiyatini asoslash, genezisi, o‘xshashlik va o‘ziga xos xususiyatlarini zamonaviy fol’klor mezonlari asosida qiyosiy o‘rganish tamoyillarini ilmiy izohlashga xizmat qiladi.

Mamlakatimizda ilm-fanni har tomonlama yuksaltirish uchun keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilayotgan hozirgi bir bosqichda barcha sohalar kabi qiyosiy folklorshunoslik oldiga ham jahon standartlariga mos salmoqli tadqiqotlar yaratish vazifasi qo‘yilgan. Bu borada “Milliy madaniy-tarixiy qadriyatlarni aks ettiruvchi va bolalikdan kitob o‘qishga qiziqishni uyg‘otuvchi o‘quv-metodik, didaktik (shu jumladan, o‘yinlar va o‘yinchoqlar) materiallar va badiiy adabiyotlarni tayyorlash hamda maktabgacha ta’lim muassasalari faoliyatiga joriy etish ishlari”ni [1] kuchaytirish shunday talablardan biridir. Mazkur tadqiqotlar doirasida ingliz va o‘zbek xalqlarining bolalar folklori etnogenezisi, mental tabiati, janr va obrazlar tizimi, tiliga xos xususiyatlarini qiyosiy nuqtai nazardan ko‘rib chiqish, tahlil va tadqiq qilish qiyosiy folklorshunoslik va adabiyotshunoslik uchun dolzarb masalalardan biridir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son

[1] Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2017 йил 9 сентябрдаги «Мактабгача таълим тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПҚ-3261-сон Қарори / Халқ сўзи. – Тошкент, 2017, 11 сентябрь.

“O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 29-oktyabrdagi PF-6097-son “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi farmonlari, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasi xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 7-fevraldagi 59-son “Boysun bahori xalqaro folklor festivalini tashkil etish va o‘tkazish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy tadqiqotlar sharhi. [2] Bolalar folklorining badiiy qurilishi, janrlar tarkibi, poetik xususiyatlari, g‘oyaviy tuzilishi, tadrijiy takomil tamoyillariga bag‘ishlangan nazariy-amaliy tadqiqotlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta’lim muassasalarida, jumladan, Moskva davlat universiteti, Sank-Peterburg davlat universiteti, Ural davlat pedagogika universiteti (Rossiya Federatsiyasi), University of Harvard, Ohio State University (AQSh), University of Bonn (Germany), University of Britich Columbia (Kanada), Peking University (Beijing, Xitoy Xalq Respublikasi), Dzyoti universiteti (Yaponiya), Academy of Korean Studies Grant (Koreya respublikasi), Yarmouk University, (Irbid, Jordan, Iordaniya), Muhammadiyah University of Surakarta (Indoneziya), Ankara universiteti, Ege Universiteti (Turkiya), Baki Dövlət universiteti, Azərbaycan Milli Elmlər Akademiyası Folklor instituti (Ozarbayjon), Yeuraziya ұlttыq universiteti, M.Avezov nomidagi Adabiyot va san’at instituti (Qozog‘iston), Kirgiz uluttuk universiteti (Qirg‘iziston), shuningdek, O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti, Buxoro, Urganch, Namangan, Andijon, Samarqand, Termiz davlat universitetlari (O‘zbekiston) va boshqa ilmiy markazlarda olib borilmoqda. Bu jihatdan jahon folklorshunosligida bolalar og‘zaki ijodining tadrijiy takomil tamoyillari, obrazlar olami, lingvopoetik xususiyatlari, voqelikning

[2] Диссертация мавзуси бўйича хорижий тадқиқотлар шарҳи https://www.publishersweekly.com/pw/by-topic/industry-news/tip-sheet/article/ https://warwick.ac.uk /fac/arts/english/ currentstudents/ undergraduate/modules /fulllist/special/ https://cyberleninka.ru/article/n/problemy-razvitiya-i https://arts.unimelb.edu.au/nceis; https://www.westernsydney.edu.au;https://sllc.umd.edu/persian/about; http://nelc.uchicago.edu; https://nelc.osu.edu; http://ut.ac.ir; http://www.um.ac. ir; https://www.amu.ac.in; http://www.du.ac.in/du; http://www.istanbul.edu.tr/tr; https://www.ankara.edu.tr; http://gazi.edu.tr; https://www.orientalstudies. az/ru; http://literature. az/?lang=aze; http://www.kaznu. kz/ru; www.iaas. msu.ru; https://www.ivran.ru; https://spbu.ru; www.orient.spbu.ru/ru ; http://www.orientalstudies.ru; http://oriental-studies.org.ua/uk/home; http://zoa.dmt.tj; http://iza.tj/ru/institutyazyka-literatury-vostokovedeniya-i-pismennogo-naslediya-im-rudak-i; http://tashgiv.uz/ru/; http://navoiy-uni.uz/uzk; http://www.samdu.uz ва бошқа манбалар асосида амалга оширилди.

sodda ifoda uslubi, ularda kattalar va bolalar ruhiy olamining talqini hamda tasviri (Yarmouk University, Irbid, Jordan); kattalar uchun yaratilgan asarlarning bolalarga o‘tishi (Ohio State University, AQSh); bolalar folklori janlari tabiati va badiiyati (Moskva davlat universiteti, Sank-Peterburg davlat universiteti, Ural davlat pedagogika universiteti, Rossiya Federatsiyasi); bolalar obrazlari tadqiq qilingan (Muhammadiyah University of Surakarta (Indoneziya); bolalar folkloridagi she’riy janrlar xususiyatlari ochib berilgan (New York University, AQSh), O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti, Buxoro, Urganch, Namangan, Andijon davlat universitetlarida (O‘zbekiston) olib borilgan ilmiy tadqiqotlarga alohida yondashildi.

Dunyo folklorshunosligi va adabiyotshunosligida hozirgi kunda bolalar og‘zaki badiiy ijodining janriy, mavzuviy, badiiy-kompozitsion, lingvopoetik xususiyatlari tavsifi, ularda bolalar ruhiyati, obraz va motivlar tadriji, bolalar folkloriga xos an’analar bo‘yicha izlanishlar olib borilmoqda. Shuningdek, jahon bolalar folklori an’analari, tipologiyasini aniqlash, janriy tizimi va tarkibidagi o‘xshashliklarni qiyosiy-tipologik o‘rganish yetakchi o‘rinni egallaydi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahon folklorshunosligida bolalar folklori va uning turli janrlariga ilmiy munosabat A.Vamberi, E.B.Taylor, Korlis Lamont, M.Petersen[3] tadqiqotlarida kuzatiladi. Shuningdek, Bauman Richard ingliz bolalar folklor etnografiyasi, Doroti Xovard bolalar o‘yin folklori, MakMahon, Felicia R. va Brayan Sutton-Smit hozirgi zamon bolalar folklorining nazariy yo‘nalishlari, Iona va Piter Opi ko‘chada va o‘in maydonchasida bolalar o'yinlari haqida to‘xtalishgan.

Rus folklorshunosligida bolalar folklori bo‘yicha G.S.Vinogradov, O.I.Kapitsa, V.P.Anikin, E.V.Pomeranseva, M.N.Melnikov kabi olimlar tomonidan yaratilgan tadqiqotlar, nashr qilingan to‘plamlar alohida e’tiborni tortadi.[4]

O‘zbek folklorshunosligida bolalar folklorini to‘plash, nashr etish va tadqiq qilish uch tarixiy bosqichda kechgan: a) rus olimlari tomonidan XIX asrning oxiri – XX asrning 30-yillarigacha;[5] b) XX asrning 30-yillaridan so‘ng;[6] s) mustaqillik

[3] Vambery A. Sketches of Central Asia. – Philadelphia: J. B. Lippincott & co.wm. H. Allen & co., 13, Waterloo Place, Pall mall, London.1868. – 444 p.; Vambery A. Travels in Central Asia. – London: Cambridge Scholars Press Ltd., 1996. – 443 p.; Вамбери А. Путешествие по Средней Азии. – М., 2003. – 193 с.; Lamont C. The Peoples of the Soviet Union. – New York, 1946; Тайлор Э.Б. Детские игры // Первобытная культура. – М.: Политиздат, 1989. – 573 с.; Petersen Marilyn. Treasury of Uzbek Legends and Lore. – Toshkent: Qatortol-Kamolot, 2000.

[4] Виноградов Г. Детская сатирическая лирика. – Иркутск, 1925. – 45 с.; Капица О.И. Детский фольклор: песни, потешки, дразнилки, сказки, игры. – Л., 1928. – 222 с.; Аникин В.П. Русские народные пословицы, поговорки, загадки и детский фольклор: Пособие для учителя. – М., 1957. – 239 с.; Померанцева Э.В. Детский фольклор // Русское народное творчество. – М., 1966. – С.135-142; Мельников М.Н. Русский детский фолькор Сибири. – Новосибирск, 1970. – 218 с.; Мельников М.Н. Русский детский фольклор: Учебное пособие для студентов пединститутов. – Москва: Просвещение, 1987. – 240с.; Мартынова А.Н. Художественный мир ребенка // Потешки, считалки, небылица. – М., 1989. – С.5-20; Мартынова А.Н. Детский поэтический фольклор: Антология / Сост. А.Н.Мартынова. – Спб., 1997. – 576 с.; Шейн П.В. Сборник народных детских песен, игр и загадок / Сост. А.Е.Грузинский по материалам Шейна. – М., 1898. – 81 с.

[5] Наливкин В.П. Очерк быта женщины оседлого туземного населения Ферганы / В.П. Наливкин, М.В.Наливкина. – Изд.2. – М.: URSS, cop.2016. – 244 с.; Васильев А. Игры сартовских детей // Туркестанские ведомости. – 1909. – № 109; Пантусов Н.Н. Игра тогуз-кумалак // ИОАЭ и И. – Казань, 1906. – Том XXII. – №4. – С.249-252; Андреев М.С. Вещие сны, несколько примет и детская игра «Сорока-ворона» среди некоторых народов, главным образом Средней Азии // Известия Глав.Среднеазиатского музея. – Вып.

davrida [7] . O‘zbek folklorshunosligida bolalar folkloriga oid to‘plamlar folklorshunoslik yo‘nalishida[8] hamda pedagogik maqsadda[9] tuzilgan.

Bolalar folklori o‘zbek olimlari tomonidan nafaqat folkloristik, balki pedagogik, lingvomadaniy, genderlik asosida ham tadqiq qilingan.[10] Biroq ingliz va o‘zbek folklorshunosligida bolalar folklorining tipologik xususiyatlari yetarlicha maxsus ochib berilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertasiya tadqiqoti Buxoro davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining “Qiyosiy adabiyotshunoslikning dolzarb muammolari” ilmiy-tadqiqot ishlari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ingliz va o‘zbek bolalar folklorining janrlar tizimi va tarkibi, taraqqiyot bosqichlari, poetikasi, obraz va motivlar tarkibi, ijro xususiyatlaridagi tipologik belgilarni aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

---

2. – Т., 1923. – С.1-34; Пещерева Е.М. Игрушки и детские игры у таджиков и узбеков (по материалам 1924-1935гг.) // Сборник Музея антропологии и этнографии АН СССР. Т.XVII. – М-Л., 1957. – С.22-94; Пещерева Е.М. Некоторые игры среди оседлого населения Туркестана // Бюллетень Средн.-Аз. гос.ун-та. Вып.11. – Т., 1925. – С.81-98; Боровков А.К. Игры узбекских детей // Сборник научного кружка при Восточном факультете САГУ. Вып.1. – Т., 1928. – С.31-42.

[6] Элбек. Болалар қўшиқлари. – Т., 1935; Жаҳонгиров Ғ. Ўзбек болалар фольклори. – Т.: Ўқитувчи, 1975. – 122 б.; Сафаров О. Ўзбек болалар поэтик фольклори. – Т.: Ўқитувчи, 1985. – 250 б.; Галиев Ш. Ўзбек болалар ўйин фольклори. – Т.: Фан, 1998. – 96 б.

[7] Қурбонова Н. Ўзбек болалар маросим фольклори: Филол. фанлари номз. дисс. автореф. – Тошкент, 1994; Авезов С. Санама жанри табиати ва бадиияти: Филол. фан. номз. дисс. автореф. – Т., 2004. – 24 б.; Рўзметов Ҳ. Хоразм болалар фольклори: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2005. – 156 б.; Сафарова Н.О. Ўзбек болалар ўйин фольклорининг жанрий табиати, генезиси ва бадиий хусусиятлари: Филол. фан. номз. дисс. автореф. – Т., 2004. – 23 б.; Турғунов Ш.Д. Наманган болалар фольклорининг жанрлар таркиби ва локал хусусиятлари: Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2019. – 52 б.; Адизова Н.Б. Қизиқмачоқларнинг жанрий табиати ва бадиияти: Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Т., 2020; Эсанов А. Ўзбек болаларининг мавсумий маросим фольклори: Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Бухоро, 2024; Шоймардонов И.А. Сурхон воҳаси болалар фольклори (ўзига хос хусусиятлари, таснифи ва бадиияти): Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Бухоро, 2024.

[8] Минг бир бола ўйини / Тўплаб, нашрга тайёрловчилар Ғ.Жаҳонгиров, Б.Маҳмудов. – Т.: Ёш гвардия, 1978. – 90 б.; Бойчечак. Ўзбек халқ ижоди. Кўп томлик. Болалар фольклори. Меҳнат қўшиқлари / Тузувчи ва нашрга тайёрловчилар Сафаров О., Очилов К. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1984. – 336 б.; Ўзбек болалар халқ ўйинлари / Тўпловчи ва нашрга тайёрловчи Сафаров О. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 2011. – 176 б.; Safarov O. O‘zbek xalq bolalar o‘yinlari. – Toshkent: Sharq, 2013. – 176 b.; Қайнар булоқ. Ўзбек болалар фольклоридан намуналар / Тўпловчи Султонов Й. – Тошкент: Чўлпон, 1991; Читтигул / Тўплаб ва нашрга тайёрловчилар Султонов Й., Раҳмонов Н., Турдимов Ш. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992. – 96 б.; Хоразм хазинаси / Тўпловчи Собир Эҳсон Турк, нашрга тайёрловчи: Нуржонов К. – Урганч: Хоразм, 1996. – 126 б.;

[9] Солиҳова М. Ғозиева С. Мактабгача тарбия ёшидаги болалар учун халқ ўйинлари. – Т.: Ўқитувчи, 1970. – 68 б.; Ғафуров Ҳ. Халқ ўйинлари, қўшиқлари ва анъаналарига бир назар. – Т., 1992. – 100 б.; Усмонхўжаев Т., Мелиев Ҳ. Миллий ҳаракатли ўйинлар. – Т.: Ўқитувчи, 2000. – 192 б.; Safarov O. O‘zbek xalq bolalar o‘yinlari. – Toshkent: Sharq, 2011. – 176 b.; Файзуллаев М., Розикова Н., Файзуллаев О. Детский фольклор: Учебно-методическое пособие. – Бухара, 2009. – 146 с.

[10] Сайфуллаев Б. Импровизационно-творческая игра как метод организации массовой культурно-просветительской работы: Автореф… канд. пед. наук. – Л., 1987. – 16 с.; Устиненко В.И. Место и роль игрового фольклора в культуре // Философские науки. – 1980. – №2. – 48-54 с; Абдурахмонов И.Р. Узбекские народные игры: Автореф… канд. пед. наук. – Т., 1997. – 24 с.; Файзуллоев О.М.Ўзбек фольклоридаги лингвокультуремаларнинг инглизча таржимада берилиши (болалар фольклори жанрлари ва эртаклар мисолида): Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2019. – 52 б.; Темирова Ж.Х. Рус ва ўзбек болалар ўйин фольклорининг типологияси: Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Бухоро, 2022. – 48 б.

ingliz va o‘zbek bolalar folklorining shakllanish omillari, taraqqiyot asoslari, to‘planishi va o‘rganilishi, etnofolkloristik hamda lingvomadaniy xususiyatlarini ochish;

ingliz va o‘zbek bolalar folklori badiiyatining taraqqiyot xususiyatlarini poetika turlari: mifopoetika, etnopoetika, tarixiy poetika, nazariy poetika, dinamik poetika, lingvopoetika asosida oydinlashtirish;

ingliz va o‘zbek bolalar folklorida mazmun-mohiyati, ijro vaqti, an’anaviy obraz va motivlari, badiiy qurilishi jihatidan o‘xshash alla, erkalama, ovutmachoq, tez aytish, sanama kabi janrlarning genezisi hamda tabiatini dalillash;

ingliz va o‘zbek bolalar folklorida mavsumiy va maishiy mazmundagi qo‘shiqlar mazmunini g’oyaviy, kompozitsion, badiiy ifoda xususiyatlariga ko‘ra yoritish;

ingliz va o‘zbek bolalar folklori namunalarining madaniy hayotdagi o‘rnini, badiiy-estetik vazifalarini, ahamiyatini, mazmuniy va shakliy turlarini, ularda satira hamda yumor badiiy ifodasini isbotlash;

ingliz va o‘zbek bolalar o‘yin folklorining tipologik belgilarini ularning o‘yin boshlanishi, borishi, tugashi bilan bog‘liq poetik janrlar umumiyligi, predmetli, sof harakatdan iborat, so‘z (ma’naviy) tiplari yaratilgani jihatidan asoslash.

Tadqiqotning obyekti sifatida ingliz va o‘zbek bolalar folklori janr namunalari tanlangan.

Tadqiqotning predmetini ingliz va o‘zbek bolalar folklorining semantik, badiiy-kompozitsion xususiyatlarining tipologik jihatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada tasniflash, tavsiflash, qiyosiy-tipologik, qiyosiy-tarixiy, tarkibiy-semiotik, funksional hamda etnofolkloristik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ingliz va o‘zbek bolalar folklorining qadimiy va hozirgi namunalari asosidagi an’anaviy hamda zamonaviy turlari insonlarning qarashlari, madaniy turmush tarzi, zamon bilan hamnafaslik, yangicha fikrlash, poetik tafakkur tadrijining an’analarga ta’siri natijasida postan’anaviy va postfolklor sifatida namoyon bo‘lishi aniqlangan;

ingliz va o‘zbek bolalar folklorida bolalarni parvarishlash, avaylash, uxlatish, erkalash, ovutish va tevarak-olam manzarasiga qiziqtirish, tabiat bilan tanishtirish maqsadida ijro qilinadigan alla, erkalama, sanama, cheklashmachoq, tarqalmachoq, ovutmachoq, qiziqmachoq kabi onalik folklori poeziyasi ona va bola ruhiyatining hamda bolalikning badiiy ifodasi orqali namoyon bo’lishi isbotlangan;

bolalarning mavsumiy hamda marosimiy folklori, bolalar marosimlari xususiyatlari, kattalar folklorining bolalar folklori shakllanishiga va rivojiga ta’siri, shuningdek, undan bolalar repertuariga ko‘chgan topishmoq, tez aytish, ertak janrlarining badiiy-kompozitsion o‘ziga xosligi ingliz va o‘zbek bolalar folklori misolida aniqlangan;

qiyoslanayotgan tillar bolalar folkloridagi maktab folklorining asosiy ijodkori va ijrochilari maktab yoshidagi boshlang‘ich sinf, o‘rta va katta yoshdagi maktab o‘quvchilarining qiziqishi va intilishlari avtograf yoki “yoshlik albomi”, alifbo qo‘shiqlar yetakchiligida; bolalar o‘yin folklori esa o‘yinga chorlov, o‘yin jarayoni,

undan tarqalish, o‘yinchilarni sanash bilan bog‘liq qo‘shiqlar, so‘z o‘yinlari hamda hazil qo‘shiqlar orqali voqelanishi dalillangan;

har ikkala til bolalar folklori namunalarida milliy til realiyalariga xos so‘zlar: asar qahramonlarining yoki kishi ismlari (antroponimlar), joy nomlari (toponimlar), kasb-hunar nomlari (professionalizmlar), urf-odat, rasm-rusum nomlari (etnografizmlar), milliy-madaniy so‘zlar (lingvokulturemalar), o‘tmishga aloqador tarixiy so‘zlar (arxaizmlar), dialektizmlar, pul birliklarini ifodalovchi so‘zlar birlamchi qiymat kasb etishi dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ingliz va o‘zbek bolalar folklorining tipologik xususiyatlari bo‘yicha aniqlangan xulosalar jahon folklorshunoslik tarixi, qiyosiy adabiyotshunoslik va folklorshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik, lingvofolkloristika kabi fanlar bo‘yicha darslik hamda o‘quv qo‘llanmalarni takomillashtirishda asos bo‘lib xizmat qilishi dalillangan;

ingliz va o‘zbek bolalar folklori tipologiyasi, ulardagi ayrim janrlar, motiv va obrazlar namunalari, avvalo, shu xalqning madaniy hayot tarzi, milliy dunyoqarashi, yashash joyi, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy muhiti bilan bog‘liq holda yaratilgani, ularning kelib chiqish ildizi, mazmuniy tasnifi, badiiy ifoda va ijro xususiyatlarida umumbashariy poetik tafakkurga xos mifopoetika, etnopoetika, tarixiy, nazariy, dinamik poetika xususiyatlari bilan bog‘langani, ularni maxsus to‘plash, chop etish va o‘rganish, poetik tahlil qilish, janrlarining o‘ziga xosligi, ijrochilik san’ati, yozma adabiyot, kinematografiya, postfolklor bilan bog‘liq tomonlarini ochish mumkinligi asoslangan;

ingliz va o‘zbek bolalar folklorining janr, g‘oyaviy-badiiy, milliy, kompozitsion xususiyatlarining aniqlanishi ularni boshqa xalqlarning bolalar folklori bilan ham qiyosiy o‘rganishda muhim faktik material sifatida foydalanishga xizmat qilishi aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi dissertatsiyada qo‘llanilgan ilmiy-metodologik yondashuv va usullar, nazariy ma’lumotlarning ilmiy, badiiy manbalardan olingani, keltirilgan tahlillar tasniflash, tavsiflash, qiyosiy-tipologik, qiyosiy-tarixiy, tarkibiy-semiotik, funksional hamda etnofolkloristik tahlil usullari vositasida asoslanganligi, nazariy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, nazariy xulosalar nafaqat ingliz va o‘zbek bolalar folklorining tarixiy asoslarini, janrlar poetikasini ochib berishga qaratilgani jihatidan jahon folklorshunosligidagi umumiy nazariy qarashlarni boyitishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, ingliz va o‘zbek bolalar folkloridagi janrlar, motivlar, obrazlarning o‘xshashligi va farqlari bo‘yicha olingan ilmiy-nazariy ma’lumotlar keyingi tadqiqotlar uchun uslubiy ahamiyatga ega bo‘lishi, oliy o‘quv yurtlari filologiya fakultetlarida qiyosiy adabiyotshunoslik va adabiyot nazariyasi fanlarini o‘qitishda, shu fanlar bo‘yicha darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari va dasturlar tuzishda, baynalmilal adabiy-madaniy aloqalar tarixidan

ilmiy izlanishlar olib borishda, folklor fanlaridan darslik, o‘quv qo‘llanma, majmualar yaratishda, entsiklopedik, folklor va adabiyotshunoslik terminlari lug’atlarini takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ingliz va o‘zbek bolalar folklori janrlari tipologiyasi bo‘yicha erishilgan ilmiy natijalar asosida:

ingliz va o‘zbek bolalar folklorining qadimiy va hozirgi namunalari asosidagi an’anaviy hamda zamonaviy turlari insonlarning qarashlari, madaniy turmush tarzi, hukumat boshqaruvidagi o‘zgarishlar, yangicha fikrlash, poetik tafakkur tadrijining an’analarga ta’siri natijasida postan’anaviy, postfolklor sifatida namoyon bo‘lishiga doir nazariy xulosalardan Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2017-2020-yillarda bajarilgan OT-F1-030 “O‘zbek adabiyoti tarixi” ko‘p jildlik monografiyasini (7 jild) chop etish” mavzuidagi fundamental loyihasida foydalanilgan (Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 24-dekabrdagi №04/1-4201-son ma’lumotnomasi). Natijada adabiyotshunoslik hamda o`zbek adaniyotini qiyosiy o`rganish sohasiga oid ilmiy-nazariy ko`rsatmalar ishlab chiqishga asos yaratgan;

ingliz va o‘zbek bolalar folklori tipologiyasi, ulardagi ayrim janrlar, motiv va obrazlar namunalari, avvalo, shu xalqning madaniy hayot tarzi, milliy dunyoqarashi, yashash joyi, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy muhiti bilan bog‘liq holda yaratilgani, ularning kelib chiqish ildizi, mazmuniy tasnifi, badiiy ifoda va ijro xususiyatlarida umumbashariy poetik tafakkurga xos mifopoetika, etnopoetika, tarixiy, nazariy, dinamik poetika xususiyatlari bilan bog‘langani, ularni maxsus to‘plash, chop etish va o‘rganish, poetik tahlil qilish, janrlarining o‘ziga xosligi, ijrochilik san’ati, yozma adabiyot, kinematografiya, postfolklor bilan bog‘liq nazariy xulosalardan Buxoro davlat universitetida 2017-2020-yillarda bajarilgan OT-F1-002 “Yoshlarda milliy g‘oya va mafkuraviy immunitetni shakllantirishning psixologik mexanizmlari” mavzuidagi fundamental loyihasida foydalanilgan (Buxoro davlat universitetining 2024-yil 19-dekabrdagi №01-04/8108-son ma’lumotnomasi). Natijada ma’naviy-ma’rifiy ishlar jarayonida yoshlarning mafkuraviy immunitetini rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirishga oid tarbiyaviy ishlarni rivojlantirish imkoniyati yaratilgan;

bolalarning mavsumiy hamda marosimiy folklori, bolalar marosimlari xususiyatlari, kattalar folklorining bolalar folklori shakllanishi va rivojiga ta’siri undan bolalar repertuariga ko‘chgan topishmoq, tez aytish, ertak janrlarining badiiy-kompozitsion o‘ziga xosligi ingliz va o‘zbek bolalar folklori misolida voqelanishiga doir ilmiy xulosalardan Samarqand davlat chet tillar institutida va Toshkent shahridagi AQSh elchixonasi hamda Xalqaro ta’lim bo‘yicha Amerika Kengashi bilan hamkorlikda 2022-2024 yillarda bajarilgan “English Access Microscholarship Program” xalqaro loyihasida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2024-yil 25-dekabrdagi №2859/02-son ma’lumotnomasi). Natijada ingliz va o‘zbek bolalar folklori janrlari tipologiyasi aniqlashtirilgan ma’lumotlar va u bo’yicha ishlab chiqilgan tavsiyalar loyiha doirasida amalga oshirilgan o’quv mashg‘ulotlari mazmuniga singdirilgan;

qiyoslanayotgan tillar bolalar folkloridagi maktab folklorining asosiy ijodkori va ijrochilari maktab yoshidagi boshlang‘ich sinf, o‘rta va katta yoshdagi maktab

o‘quvchilarining qiziqishi va intilishlari avtograf yoki “yoshlik albomi”, alifbo qo‘shiqlar yetakchiligida; bolalar o‘yin folklori esa o‘yinga chorlov, o‘yin jarayoni, undan tarqalish, o‘yinchilarni sanash bilan bog‘liq qo‘shiqlar, so‘z o‘yinlari hamda hazil qo‘shiqlar orqali voqelanishiga doir ilmiy xulosalardan Buxoro davlat universitetida 2019-2021 yillarda bajarilgan AQSHning SUZ800191NO158-MOO3 raqamli xalqaro loyihasida foydalanilgan (Buxoro davlat universitetining 2024-yil 20-dekabrdagi 06/8142-son ma’lumotnomasi). Natijada grant doirasida o’tkazilgan tadbir va mashg’ulotlarda tinglovchilarga namoyish etilgan prezentatsiyalar asosida ingliz va o’zbek bolalar folkloridagi o’xshash sujet va motivlar, obrazlar haqida ma’lumotlar yetkazilgan;

har ikkala til bolalar folklori namunalarida milliy til realiyalariga xos so‘zlar: asar qahramonlarining yoki kishi ismlari (antroponimlar), joy nomlari (toponimlar), kasb-hunar nomlari (professionalizmlar), urf-odat, rasm-rusum nomlari (etnografizmlar), milliy-madaniy so‘zlar (lingvokulturemalar), o‘tmishga aloqador tarixiy so‘zlar (arxaizmlar), dialektizmlar, pul birliklarini ifodalovchi so‘zlar birlamchi qiymat kasb etishi bilan bog‘liq xulosa va natijalardan Buxoro viloyat teleradiokompaniyasi “Buxoro” telekanalining “Assalom, Buxoro”, “asrlarning asraganlari” teledasturlari, shuningdek, “Muloqot va munozara”, “Qadriyatlar qadim beshigi” radioeshittirishlari ssenariysini tuzishda foydalanilgan (Buxoro viloyati teleradiokompaniyasining 2024-yil 16-dekabrdagi №01-09-181-son ma’lumotnomasi). Natijada ushbu teleko’rsatuvlar uchun tayyorlangan materiallarning mazmuni mukamallashuviga, ilmiy dalillarga boy bo’lishiga, ko’rsatuvning ilmiy-ommabopligini ta’minlashga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiyaning asosiy natijalari 10 ta ilmiy-amaliy, shu jumladan, 3 xalqaro va 7 respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mazvusi bo‘yicha 22 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini nashr qilish tavsiya etilgan nashrlarda 10 ta ilmiy maqola, jumladan, 5 tasi respublika va 5 tasi xalqaro jurnallarda e’lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to‘rt bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovadan iborat bo‘lib, umumiy hajmi 223 sahifani tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning zarurati va dolzarbligi, dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy tadqiqotlar sharhi, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi va dissertatsiyaning tadqiqot rejalari bilan muvofiqligi, tadqiqotning obyekti, predmeti, maqsadi va vazifalari, tadqiqot usullari, shuningdek, ishning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining joriy etilishi,

aprobatsiyasi, e’lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Bolalar folklorining kattalar folkloridan farqli xususiyatlari va o‘rganilishi”** deb nomlangan. Bu bob ikki fasldan tarkib topgan. Uning ilk fasli *“Bolalar folklori – kattalar folklorining tarkibiy qismi sifatida”* deb atalgan. Bolalar folklori – xalq og‘zaki ijodining tarkibiy qismi. U folklorning tarkibiy qismi sifatida insoniyat badiiy tafakkurining ilk onlaridanoq shakllana boshlagan. Uning aksariyat namunalari kattalar tomonidan bolalar uchun yoki bolalar faoliyati haqida yaratilgan. Ammo unga kattalar ham, bolalar ham baravar hissa qo‘shganlar. Kattalar butun bir tizimdan iborat bolalarni erkalash poeziyasini yaratgan bo‘lsalar, bolalar ham o‘zlari uchun qiziqarli o‘yin-qo‘shiqlar ijod qilishgan. Shundan kelib chiqib, bolalar folklori asarlarini kim yaratgan va kimga mo‘ljallanganligini hisobga olib, ularni dastlab ikki guruhga ajratish lozim. Bular: 1. Kattalar folklori. 2. Bolalar folklori.

Bolalar folklori janrlari yaxlit tizim sifatida namoyon bo‘ladi. Undagi har bir janrning o‘z vazifasi mavjud. Masalan, allalar bolaning uyqu davrida rivojlanishi va o‘sishi jarayonida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Shu ma’noda alla bolaga aytilganda uning uxlab qolishiga yordam beradigan psixologik vositalardan biri hisoblanadi.

Bolalar folklori hayot haqiqatini sodda tilda, oson, hayajonli qilib bolaning nozik ongiga taqdim etadigan manbalardir. Bolalar uchun ijro qilinadigan folklor namunalari ota-onalar va bolalar o‘rtasidagi aloqani o‘rnatishdan tashqari, maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarga ota-onalarning farzandlari maktabda o‘qish jarayonida muvaffaqiyat qozonishi uchun imkoniyatlarini oshirishga ko‘mak berishi mumkin. Ammo, afsuski, barcha ota-onalar farzandlariga muntazam ravishda folklor aytishmaydi. Bunga, birinchidan, hamma ota-onalar ham uni bilmasligi sabab bo‘lsa, ikkinchidan, ular farzandlariga kam vaqt ajatishi sabab bo‘ladi.

Ingliz bolalarining shunday qo‘shiqlari borki, unda insonning ulg‘ayib borishiga xos xatti-harakatlar tasvirlanib, turli yosh bosqichida turlicha nomlanishi ko‘rsatib o‘tiladi. Bunga “Miss Suzi” qo‘shig‘ini misol qilish mumkin. Yoki ingliz bolalar folklorida saqlanib kelayotgan “Lo‘li, lo‘li” o‘yin-qo‘shig‘i ham ijtimoiy mazmunga egaligi bilan diqqatni tortadi. Unda lo‘liga murojaat qilinib, shunday deyiladi: “Lo‘li, lo‘li, iltimos, menga erim nima bo‘lishini ayting. Boy, kambag‘al, tilanchi, o‘g‘ri, doktor, advokat, boshliq, qassob, novvoy, shamdon yasab sotuvchi, tikuvchi, kovboy, dengizchi? Ushbu qo‘shiq bolalarning qanaqa kasblar borligi, ular bilan shug‘ullanuvchilar nomini qanchalik darajada bilishidan darak beradi. Muhimi shundaki, u qizlarning “fol qo‘shig‘i” sifatida ham qayd etiladi. Chunki bunda qo‘shiq qatori qaysi so‘z bilan tugasa, ya’ni uning so‘nggi so‘zi qizning kelajakdagi bo‘lajak erining qaysi kasb egasi bo‘lishidan xabar hisoblangan.

Oxirgi yillarda televizorga asoslangan xayoliy rolli o‘yinlar namoyishlari keng tarqalmoqda. Bunday rollarni o‘ynagan bola o‘zini xuddi haqiqiy aktyor yo aktrisa kabi tutadi. Sh.Turg‘unov ham Namangan bolalar folklori namunalarini to‘plash va ularni tadqiq etish jarayonida keyingi yillarda avj olgan televideniya

orqali turli seriallarning berilishi ta’sirida yaratilgan ayrim qo‘shiqlardan misollar keltirib o‘tgan va ularni postfolklor sifatida to‘g‘ri qayd qilgan.[11]

Bizningcha, bolalar folklorini yaratilish yoki ijro davriga ko‘ra: an’anaviy va zamonaviy tiplarga bo‘lish mumkin. Bunda uning yangi mazmun va shakldagi tiplari postfolklor mahsuli sifatida namoyon bo‘ladi. Ular zamonaviy turmush voqeligini o‘zida motivlashtirishi va obrazlantirishi bilan yangi ekani ko‘rinadi.

Birinchi bobning ikkinchi fasli *“Ingliz va o‘zbek folklorshunosligida bolalar folklorining o‘rganilishi va nashri masalasi”* deb atalgan. 1880-yillardan boshlab odamlar bolalar folklorini muhim tadqiqot sohasi sifatida tan oldilar. Yigirmanchi asrning o‘rtalaridan boshlab bolalar folkloriga oid so‘rovlar asosan og‘zaki nutq, marosimlar va o‘yinlarga qaratilgan bo‘lsa-da, ba’zilari moddiy madaniyatni ham hisobga olgan. Ingliz bolalar folklorshunosligining o‘z shakllanish va taraqqiyot xususiyatlari mavjud. Uning fan sifatida shakllanishida qator olimlarning xizmatlari bor. Ulardan biri Elizabet Taker bo‘lib, 1948-yilda “Bolalar folklori” nomli qo‘llanma yaratgan. Bu qo‘llanmada ingliz bolalar folklorshunosligining XIX asr oxiridan XX asr boshlarigacha bo‘lgan rivojlanish yo‘llari, unda ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlarning aks etishi hamda bolalar folklori va ta’lim o‘rtasidagi aloqalarga e’tibor qaratilgan. Bolalar folklorining janrlarini belgilaydigan atamalar aniqlangan. Olima bolalar folklorini adabiyot, filmlar, televidenie, ommaviy ishlab chiqarilgan qo‘g‘irchoqlar, o‘yinchoqlar va o‘yinlar konteksti bilan bog‘laydi.

Bolalar folklorini maxsus soha sifatida o‘rganish XIX asrning oxirida olimlarning Angliya va AQShda bolalar o‘yinlari va qo‘shiqlarini yozib olishi va tahlil qilishni boshlagan paytidan start olgan.

“Yoshlikning an’anaviy qo‘shiqlari” (1947) kitobi bilan ingliz tadqiqot guruhi sifatida uzoq va samarali faoliyat yuritgan er-xotin Iona va Piter Opi bolalar an’analarini o‘rganish muhimligini ko‘rsatdilar. Ularning “Oksford bolalar bog‘chalari lug‘ati” (1952) tezda bolalar bog‘chasi haqidagi kanonik asarga aylandi. Oradan yetti yil o‘tgach, 1959-yilda ularning “Maktab o‘quvchilari tili va til” kitobida Angliya, Shotlandiya, Irlandiya va Uelsdagi 5000 bolalarning hazillari, topishmoqlari, masxaramalari, urf-odatlari, e‘tiqodlari, rivoyatlari va boshqa folklor turlari taqdim etildi. Juda o'qilishi zavqli va qiziqarli bo‘lgan ushbu kitob katta xalqaro auditoriyaga bolalar folklori an'analarining boyligi va rang-barangligini namoyish etdi. Uning nashridan so‘ng bolalar folklorini o‘rganishning yangi davri boshlandi.

Sutton-Smitning ko‘plab nashrlari folklorshunoslarning bolalar o‘yinlari va hikoyalarini tushunishlariga katta hissa qo‘shgan. Uning eng ta‘sirli asarlari qatoriga “Bolalar xalq o‘yinlari” (1972) va “Bolalar xalq hikoyalari” (1981) kiradi.

Bolalar folklorini o‘rganishning yana bir jonkuyari Doroti Xovarddir. U “Amerika bolalarining xalq ohanglari” nomli doktorlik dissertatsiyada (1938) bolalar folklorini obyekt sifatida tanlagan.

Nayjel Kelsi Ikkinchi jahon urushi yillarida o‘qituvchilikka o‘qiyotganda bolalar folkloriga qiziqib qoladi va 1964-yilda o‘yin qo‘shiqlar tavsiflarini

[11] Турғунов Ш.Д. Наманган болалар фольклорининг жанрлар таркиби ва локал хусусиятлари: Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2019. – Б.30-34.

magnitafonga yozishni boshlaydi. U London universitetida bolalar nutqi va ijodiyoti bo'yicha izlanishlar olib borar ekan, bolalardan qo‘shiqlar, hazillar, topishmoqlar, so‘z o'yinlarini so‘rab yozib oladi. 1982-yilda nafaqaga chiqishi unga London hududidagi 20 ta maktabda bolalar folklorining ulkan to'plamini yig‘ishni boshlash imkoniyatini beradi. U tuzgan to'plamda qarsak chalish va to‘p bilan sakrash qo‘shiqlari, shuningdek, qo‘shiq o‘yinlari, qo‘shiq parodiyalari, masxara, limeriklar, boshqotirmalar, topishmoqlar va hazillar mavjud. Kelsi nufuzli folklor jurnallarida bir qator maqolalar ham chop etgan. Uning “Hamma yig‘iladi” deb nomlangan kitobiga London shahri ichidagi bolalar folklor xazinasi jamlangan.

Bolalar folkloriga taalluqli eng yaxshi tadqiqotlardan yana biri Jerom L. Singerning “Bolalarning ishontirish dunyosi” (1973) asaridir. Danielle Roemerning “Anglo bolalar folklorining ijtimoiy o'zaro tahlili” (1977) bo‘yicha tadqiqotida esa besh yoshdan to‘qqiz yoshgacha bo‘lgan bolalarning og‘zaki badiiy mahorati yaqindan o‘rganilgan.

Bolalar folkloriga oid e’tiborli tadqiqotlardan yana Saymon J. Bronnerning “Amerika bolalar folklori” (1988) va Brayan Satton-Smit, Jey Mechling, Tomas V. Jonson va Felisiya tomonidan tahrirlangan “Bolalar folklori: manba kitobi” (1995) asaridir. Ularda bolalar tomonidan yaratilgan folklorning kattalar folkloridan farq qilishi ta’kidlangan. Simon J. Bronner o‘zining “Oltin davrdan folklorshunoslik” kitobida o‘tmish bolalar folklorshunosligi hamda XIX asr oxiridagi uning Oltin asri taraqqiyotiga e’tiborni qaratadi.

Shunisi borki, bolalar folklori namunalari orasida eng ko‘p o‘yin folklori tadqiqiga e’tibor qaratilgan. Bu borada Xollning rekapitulyatsiya nazariyasi shuni ko‘rsatadiki, bolalar o‘yinlari o‘tmish haqida muhim ma’lumotlarni beradi.

O‘zbek bolalar folklorini to‘plash, nashr etish va tadqiq qilishda ham ma’lum ilmiy natijalarga erishilgan. Dastlab bu ishni G‘ani Jahongirov 1975-yilda boshlab berdi. Uning “O‘zbek bolalar folklori” monografiyasida beshik qo‘shiqlari, bolalar ertaklari, tez aytishlar va topishmoqlar, bolalar qo‘shiqlari, bolalar o‘yin folklori, o‘yin oxiri, o‘yinda folklor elemementlari kabi masalalar tadqiq qilingan.[12] Undan so‘ng 1985-yilda O.Safarov o‘zbek bolalar folklorining allalar, aytim-olqishlar, ovutmachoqlar, erkalamalar, qiziqmachoqlar, qaytarmachoqlar, yalinchoqlar, hukmlagichlar, arazlamalar, yarashtirgichlar, tegishmachoqlar, masxaralamalar, tez aytishlar, guldur-guplar, chandishlar, chorlamalar, cheklashmachoqlar, sanamalar, tarqalmachoqlar kabi yigirmaga yaqin poetik janrlarini yaxlit tizim sifatida e’tirof etib, har birining genezisi va janriy tabiati, badiiyati, poetik vazifasini ochishga diqqat qaratdi. Bunda olim ushbu poetik hodisalarning ham kattalar, ham bolalar ijrochiligi va ijodkorligi hosilasi sifatida tarkib topganligini ta’kidlab, bu haqda “Bolalarni erkalovchi o‘zbek xalq qo‘shiqlari” (1983) risolasi va “O‘zbek bolalar poetik folklori” (1985) monografiyasini yaratdi. O`zbek folklorshunosligi tarixida bolalar poetik folklorining ayrim janriy ko‘rinishlari namunalaridan tarkib topgan kichik nashrni G‘.Jahongirov amalga oshirgan bo‘lsa, shunday nashrning salmoqlisini “Boychechak” (1984) nomi bilan O.Safarov chop ettirgan. O.Safarov

[12] Жаҳонгиров Ғ. Ўзбек болалар фолклори. – Т.: Ўқитувчи, 1975. – Б.122.

yana o‘zbek onalarining allalaridan tuzilgan “Alla-yo alla” (1999), o‘zbek bolalarining harakatli va ma’naviy o‘yinlaridan tarkib topgan “O‘zbek bolalar xalq o‘yinlari” (2007) to‘plamlarini ommaga yetkazdi. Bu jihatdan yana M.Yoqubbekova, N.Qurbonova, Sh.Galiyev, S.Avezov, H.Ro‘zmetov, N. Safarova, Sh. Turg‘unov, N.Adizova, J.Temirova, A.Esanov, I. Shoymardonovlarning tadqiqotlari [13] ham bevosita bolalar folklori bo‘yicha yaratilgani bilan muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Ingliz bolalar folklorshunosligi oldinroq, o‘zbek bolalar folklorshunosligi nisbatan keyinroq shakllanib, uning beqiyos namunalari keng ko‘lamda yozib olinib, ommalashtirila boshlandi. Hozirgi paytda ularni ham ommalashtirishda internet tarmog‘i ancha qulayligi ayonlashmoqda.

Dissertatsiyaning “**Ingliz va o‘zbek bolalar folklorida bolalarni avaylovchi va erkalovchi poeziya tipologiyasi”** deb nomlangan ikkinchi bobi uch fasldan tarkib topgan. Uning dastlabki fasli *“Ingliz va o‘zbek folklorida bolalarni uxlatish, erkalash, ovutish va qiziqtirish qo‘shiqlari*”ga bag‘ishlangan. Chunki ingliz va o‘zbek bolalar folklori namunalarining katta qismini erkalovchi va ovutuvchi qo‘shiqlar tashkil qiladi. Kattalar bolani uxlatishda alla kuylash, uni erkalatib o‘ynayotganda turli qiziqmachoqlar, erkalama va ovutmachoqlar aytishga katta e’tibor qaratgan. To‘g‘ri, ilk yoshdagi bola bu folklor aytimlarining so‘zini hali anglamaydi. Biroq ularga xos ohang, ritm bolani zavqlantirishi shubhasiz. Bolalar eshitadigan birinchi qo‘shiqlar beshik qo‘shiqlaridir.

O‘rta asr ingliz qo‘lyozmalarida bir nechta beshik qo‘shiqlari namunalari saqlanib qolgan, ammo ularning barchasi kattalar diniy adabiyoti bilan bog‘liq bo‘lib, Bokira Maryam chaqaloq Isoga oilasining qashshoqligi yoki uning kelgusi hayoti va o‘limi haqida kuylayotgani tasvirlangan.

Lullaby (alla) **–** ingliz bolalar folklorining alohida she’riy janri. Bolalarning uxlab qolishi uchun kuylanadigan, ularni tinchlantiruvchi bunday qo‘shiqlar ko‘proq yumshoq ohangi bilan mashhur. Unga misol sifatida “Rock-a-Bye Baby” va “Hush, Little Baby” qo‘shiqlarini keltirish mumkin. Allalar monoton ohangda ijro qilinadi. Ular, asosan, to‘rtliklardan tashkil topgan bo‘ladi. Ingliz allalarida “baby”, o‘zbek allalarida “bolam” so‘zi undalma bo‘lib keladi. O‘zbek allalarida alla so‘zi har satrda yoki satr osha, goho esa uzvli shaklda (alla-yo alla, allo-o, huy-yo tarzida) takrorlanib keladi.

---

[13] Ёқуббекова М. Ўзбек халқ бешик қўшиғи – “Алла”ларнинг жанрий табиати ва бадиий хусусиятлари: Филол. фан. номз. ...дисс. автореф. – Тошкент, 1990; Қурбонова Н. Ўзбек болалар маросим фольклори: Филол. фанлари номз. дисс. автореф. – Тошкент, 1994; Галиев Ш. Ўзбек болалар ўйин фольклори. – Т.: Фан, 1998. – 96 б.; Авезов С. Санама жанри табиати ва бадийяти: Филол. фан. номз. дисс. автореф. – Т., 2004. – 24 б.; Рўзметов Ҳ. Хоразм болалар фольклори: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2005. – 156 б.; Сафарова Н.О. Ўзбек болалар ўйин фольклорининг жанрий табиати, генезиси ва бадиий хусусиятлари: Филол. фан. номз. дисс. автореф. – Т., 2004. – 23 б.; Турғунов Ш.Д. Наманган болалар фольклорининг жанрлар таркиби ва локал хусусиятлари: Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2019. – 52 б.; Адизова Н.Б. Қизиқмачоқларнинг жанрий табиати ва бадийяти: Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Т., 2020; Темирова Ж.Х. Рус ва ўзбек болалар ўйин фольклорининг типологияси: Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Бухоро, 2022. – 48 б.; Эсанов А. Ўзбек болаларининг мавсумий маросим фольклори: Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Бухоро, 2024; Шоймардонов И.А. Сурхон воҳаси болалар фольклори (ўзига хос хусусиятлари, таснифи ва бадийяти): Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Бухоро, 2024.

O‘zbek folklorida otalar (erkaklar) allasi bo‘lgani kabi ingliz folklorida ham ota tomonidan kuylangan allalar borligi aniqlandi. O‘zbek folklorida bunday allalar “Huy-ya”lar deb yuritiladi.

Hush-a-bye, baby, lie still with thy daddy,
Thy mammy is gone to the mill,
To get some meal to bake a cake,
So pray, my dear baby, lie still.[14]

Unda bolaga murojaat qilinib, onasi keks pishirish, ovqat olib kelish uchun tegirmonga ketgani sababli dadasi bilan jim yotishga undalmoqda.

Beshik qo‘shig‘i deb aytish mumkin bo‘lgan qo‘shiqlarda “beshik” (“cradle”) so‘zining ishtiroki ularning tabatini belgilash uchun muhim belgi sifatida qabul qilinishi mumkin. Masalan:

Rock-a-bye-Baby Rock-a-bye, Baby, in the tree top, When the wind blows the cradle will rock; When the bough breaks the cradle will fall, Down tumbles cradle and Baby and all.[15]	Rock-a-be-Baby Rok-a-bay, bolam, daraxt tepasida, Shamol essa beshik tebratadi; Shox uzilganda beshik tushadi, Down tumbles beshik va Baby va barcha.

Ingliz bolalar folklorida alla, erkalash, ovutish qo‘shiqlari juda mashhur bo‘lib, ularning ko’plab shakllari mavjud. Ulardan biri “Bye, baby Bunting” alla qo‘shig’idir. U dastlab 1731-yil Angliyada yozib olingan. Bu alla qo‘shig‘ining qisqa va uzunroq yozilgan shakllari bor. Unda “bunting” so‘zi “to‘la, do‘mboq” ma’nosida erkalash uchun ishlatilgan:

Asliyatda	Tarjimasi
Bye, baby bunting, Dady’s gone a hunting. Gone to get a rabbit skin To wrap the baby Bunting in.[16]	Xayr, chaqaloq Bunting, Dadang ovga ketgan. Quyon terisini olishga ketti, Chaqaloq Buntingni o‘rash uchun.

Ushbu allaning keyingi satrlari etnografik mohiyatga ega bo‘lib, u orqali o‘tmishda chaqaloqlarni magik himoyalash maqsadida turli hayvonlarning terisiga o‘rab katta qilishgani anglashilib turibdi.

O‘zbeklar orasida bola beshik yoshida vafot qilsa, uning uchun quruq beshikni tebratib turib “motam allasi” aytiladi. Shu bois xalq orasida beshikni bolasiz, bo‘sh holda tebratish yomon irim sifatida qabul qilinadi.

Yosh bolalar uchun aytiladigan olqishlar mazmunan kengligi bilan ajralib turishi va bolalarga aloqador turli marosimlarning verbal qismi sifatida namoyon bo‘lishini O.Safarov batafsil tahlil qilgan. O`zbek folklorida ularning aksariyati she’riy ko‘rinishdagi aytim-olqishlardan iborat. *Aytim-olqishlar* deb ataladigan bunday rasm-rusum qo‘shiqlari,[17] asosan, bolalarning beshik davriga oid turli-tuman marosimlarda ijro etiladi. Jumladan, chaqaloq besh va to‘qqiz kunlik

[14] Wright, Blanche Fisher, illustrator. The Real Mother Goose. Rand McNally & Company, 1916, p. 18.
[15] Wright, Blanche Fisher, illustrator. The Real Mother Goose. Rand McNally & Company, 1916, p. 24.
[16] Wright, Blanche Fisher, illustrator. The Real Mother Goose. Rand McNally & Company, 1916, p. 18.
[17] Сафаров О. Айтим-олқишлар // Болаларни эркаловчи ўзбек халқ қўшиқлари. – Т.: Фан, 1983. – Б.33-49; Сафаров О. Айтим-олқишлар // Ўзбек болалар поэтик фольклори. – Т.: Ўқитувчи, 1985. – Б.44-55.

bo‘lganda, ilk bor cho‘miltirilganda, beshikka bog‘lanayotganda yoki beshikdan ochib olayotganda, qarindoshlariga tanishtirilganda, ilk tishi yoriganda, birinchi marta mustaqil o‘tirganida, oyoq bosganida, yangi kiyim kiygizilganda, qizaloq sochini ilk bor yuvib-taraganda, tirnog‘i olinganda, o‘g‘il bola sochiga birinchi marta qaychi urilganda, isiriq tutatilganda va boshqa shunga o‘xshash vaziyatlarda chaqaloqqa uzoq umr, farovon rizq, baxtli kelajak tilash maqsadida ijro etiladi.

Erkalama – bolalarni suyish uchun aytiladigan xalq qo‘shiqlaridan biri. Ularni kuylash inson kayfiyati bilan bog‘liq. Bunda kayfiyatning ko‘tarinkiligi muhim rol o‘ynaydi. O‘zbek erkalamalari ko‘pincha “O... shugina”, “Shuginagina”, “Ha, lo‘tti-lo‘tti”, “Ha, do‘rsa, do‘rsa, do‘rsa”, “Ha, kishta-kishta, kishta” singari taqlidiy va so‘qma so‘zlar bilan boshlanadi.

Erkalash qo‘shiqlari ingliz bolalar folklorida ham mavjud. Ulardan biri “Pat-a-Cake” erkalamasidir. Ingliz onalar folklorida mashhur erkalmalardan yana biri “Twinkle, twinkle, little star” – “Miltilla, kichkina yulduz” deb boshlanadi. Ushbu qo‘shiqni ingliz onalari bolani erkalash jarayonida kuylar ekan, unda bolani yulduzga mengzaydilar. Bolani yulduzga o‘xshatish o‘zbek folklorida ham kuzatiladi. Masalan:

Osmondagi yulduzim,
Yoqamdagi qunduzim.
Tezroq ulg‘ay, katta bo‘l,
Mening oppoq, jon qizim.

Quyidagi qo‘shiq ovutmachoq yo erkalama, yo alla qo‘shig‘i, qizaloqlar tilidan qo‘g‘irchoqni o‘ynatish qo‘shig‘i sifatida kuylanishi mumkin:

Asliyatda	Tarjimasi
Hush, baby, my doll. Hush, baby, my doll, I pray you don’t cry. And I ‘ll give you some bread and some milk, by-and by, Or perhaps you like custard, or, maybe a tart, Then two either you are welcome, with all my heart. (61).[18]	Tinchlan chaqaloq qo‘g‘irchog‘im. Tinchlan, chaqalog‘im, mening qo‘girchog‘im, Men senga non va sut beraman, Balki sen kremni yoki pirogni yoqtirarsan, Qaysi biri bo‘lsa ham, marhamat, jonim bilan.

Bolalarni ovutish, uy-ro‘zg‘or ishlarini bajarib olishi uchun ba’zan katta kishi (bobo yoki buvilar) yosh bolakayni tizzasiga o‘tirg‘izib, silkitib, yuqoriga otib o‘ynatadilar. Shu bosqichda eng mashhur o‘zbek bolalar o‘yinlaridan “Havzak-havzak”lardan ko‘p foydalaniladi.[19] Barmoq o'yinlari juda yosh bolalar orasida mashhurdir. Ular ota-onalari va boshqa kattalardan “Peek-a-boo” kabi barmoq o'yinlarini o'rganadilar.

Erkalama va tinchlantiruvchi qo‘shiqlardan aksariyati “Hush, Little Baby” satri bilan boshlanadi. Kattalar bola bilan o‘ynaganda uning qulog‘i yo burni, qoshi yo ko‘zi, boshi yo qo‘l-oyog‘i va hokazo a’zolarini ushlab-ushlab, turli qo‘shiqlar

[18] Wright, Blanche Fisher, illustrator. The Real Mother Goose. Rand McNally & Company, 1916, p. 18.
[19] Сафаров О. Болалар фольклорида “Ҳавзак-ҳавзак”. – Ўзбек тили ва адабиёти. – 1978. – №6. – Б. 32.

aytadilar. Bu ingliz folklorida ham mavjudligi kuzatiladi. Ulardan biri “Brow, brow, brinkie” deb boshlanadi.

Bolaning yig‘isiga turlicha sabablar bo‘lishi mumkin. Ko‘pincha bola och qolsa, yig‘laydi. Shuning uchun ba’zi ovutmachoqlarda bola tinchlanishi uchun unga yeguliklar berilishi haqida so‘z yuritiladi.

Hush, baby, my doll,
I pray you don't cry,
And I’ll give you some bread, and some milk by-and-by.
Or perhaps you like custard, or, maybe, a tart,
Then to either you are welcome, with all my heart.[20]

Bu ovutmachoqda “Tinchlan, bolam, men senga non va sut beraman. Yoki senga smetana yoqar, balki tort yoqar, deyilmoqda.

“Old mother Hubbard and her dog” (“Keksa ona Xubbard va uning iti”) qiziqmachog‘ida kambag‘al keksa ona Xabbard itiga suyak, o‘ziga non olish uchun boradi, lekin u qaytib kelganida iti o‘lgan edi. Kampir itiga tobut sotib olish uchun duradgornikiga boradi, lekin u qaytib kelganida it kulib chiqib keladi. Shundan so‘ng kampirning yana shlyapa sotib olish uchun shlyapachiga, parik sotib olish uchun sartaroshga, meva sotib olish uchun mevaxonaga, palto sotib olish uchun tikuvchiga, poyabzal sotib olish uchun poyabzalchiga borishi aytilar ekan, bu bilan bolaga kimdan nima sotib olish mumkinligi aytiladi.

Ikkinchi bobning ikkinchi fasli *“Bolalarining mavsumiy hamda marosimiy folkloridagi o‘xshashlik va o‘ziga xosliklar”* nomini olgan. Kattalar bolalarning tabiatga munosabatlarini shakllantirishda ham faol ishtirok etadilar. Buning natijasida bolalarning o‘z solnomasi (kalendari) va uni ifoda etuvchi mavsum-marosim qo‘shiqlari yuzaga kelgan. Bahor, yoz, kuz, qish mavsumlari bilan bog‘liq bunday qo‘shiqlarning bir qismi ijtimoiy-siyosiy taraqqiyot taqozosiga ko‘ra kattalar repertuaridagi mavqeini yo‘qota borib, yo tamoman so‘nib ketadi, yo transformatsiyaga uchrab, bolalar repertuarida saqlanib qolgan. Bunga o‘zbek folkloridagi “Boychechak”, “Yo ramazon” va hayitliklarni misol qilish mumkin.

Ingliz bolalar folklorida ham mavsumiy, tabiat hodisalariga oid qo‘shiqlar mavjud. Masalan, yomg‘ir, qor kabi yog‘ingarchilikka atalgan bolalar qo‘shiqlari, termalarini misol qilish mumkin. “Rain, rain, go away” qo’shig’ining bir nechta shakllari bor va ilk marta yozib olinishi XVII asrga to‘g‘ri keladi. Bu qo‘shiqda asosan yomg‘irning ko‘p yog‘ishi, bolalarning uyda zerikib o‘tirib, ko‘chada o‘ynolmasligi, shuning uchun yomg‘irga ketgin, boshqa kuni yana yog‘gin deb murojaat qilishlari kuzatiladi:

Asliyatda	Tarjimasi
Rain, rain, Go away. Come again April day, Little Johnny wants to play.[21]	Yomg‘ir, yomg‘ir , Uzoqqa ketgin. Aprel kuni yana kelgin, Kichik Jonny o‘ynashni xohlaydi.

[20] Wright, Blanche Fisher, illustrator. The Real Mother Goose. Rand McNally & Company, 1916, p. 32.
[21] Wright, Blanche Fisher, illustrator. The Real Mother Goose. Rand McNally & Company, 1916, p. 78.

Bolalar folklorida, jumladan, ingliz bolalar folklorida “arvoh chaqirish”ga qaratilgan maishiy marosim alohida o‘ringa ega. Ishonchga ko‘ra, chaqirilgan arvoh kelsa, marosim uchun yoqilgan barcha shamlar o‘z-o‘zidan o‘chib qoladi.

Ma’lumki, sanamalar bolalarga o‘yinchilarni tanlash yoki kimnidir biror rolni bajarishga tayinlash vazifasini bajarish uchun ishlatiladi. H.C.Boltonning “Bolalar qo‘shiqlari” (1888) asari bunday poetik aytimlarning birinchi tadqiqotidir. H.C.Boltonning ta’kidlashicha, odamlar dastlab fol ochish uchun, yana qurbonlik marosimi qurbonlarini aniqlash uchun sanamalardan foydalanganlar. Hozirda bolalar sanamalari o‘yinda biror-bir bolaning galini aniqlash, o‘zlari afzal ko‘rgan o‘yinchilarni tanlash uchun foydalaniladi.

Ingliz bolalarining “The marriage of cock Robin and
Jenny Wren” nomli qo‘shig‘ida shu xalqning uylanish bilan bog‘liq to‘y marosimiga oid ayrim urf-odatlari tasviri keltirilganiga guvoh bo‘lish mumkin. Barcha xalqlarda kelin-kuyovdan bir-biri bilan turmush qurishga rozi yoki rozi emasligi so‘raladi. Xuddi shu odat tafsiloti bu qo‘shiqda keltirilgan. So‘ngra kelin-kuyov bir-birining barmog‘iga nikoh uzugi taqishi tasvirlangan. Ularga qarata: “Kuyov baxtli bo‘lsin. Kelin baxtli bo‘lsin! Inson ham, qush ham, hayvon ham baxtsiz bo‘lmasin, bu baxtli juftlik bo‘linmasin!”

“The death and burial of poor cock Robin” (“Bechora xo‘roz Robinning o‘limi va dafn etilishi” haqidagi qo‘shiqda ingliz turmushiga xos dafn marosimi tasviri keltirilgani diqqatni tortadi. U xuddi ertak kabi syujetli bayon etilgan.

Bolalarning mavsumiy qo‘shiqlarida tabiat bilan bog‘liq tushunchalar, marosimlar, maishiy qo‘shiqlarda esa turmush hodisalari va ularga poetik munosabat aks etganini kuzatish mumkin.

Ikkinchi bobning uchinchi fasli *“Kattalar folkloridan bolalar folkloriga o‘tgan janrlar”* muammosigaa qaratilgan. Folklorda shunday janrlar borki, ular dastlab kattalar folklorida paydo bo‘lib, bora-bora ko‘proq bolalar orasida aytiladigan bo‘lgan. Ayniqsa, topishmoq va ertak shunday janrlardan hisoblanadi.

XV asrda topilgan bir maktab o‘quvchisining daftarida xizmatkor va yovuz shayton o‘rtasida kechgan ajoyib savol-javob topishmoq yozilgani aniqlangan. Keyinchalik uning Angliya va Shotlandiyada turli xil versiyalarda keng tarqalgani kuzatilgan. Savol-jumboq shaklidagi aytimlar ikkala xalq bolalar folklorida uchraydi. Shuningdek, masala-topishmoq ingliz va o‘zbek folklorida ham mavjud.

Topishmoqlar orasida “Nimaning tili bor va u gapirolmaydi? – Poyabzal” yoki “Nima to'rt oyog'i bor, ammo yurolmaydi? – Stul” kabi hazilga asoslanganlari ham ko‘p. Xususan, metafora – shartli ko‘chimga asoslangan topishmoqlar bolalarni chuqurroq o‘ylashga da’vat qilishi bilan muhim sanaladi: “Idishdagi mingta chiroq, bu nima? – Yulduzlar”. Bunday topishmoqlarga Jon X.Makdauellning 1975-yilgi “Chikago bolalarining nutqiy o‘yini va og‘zaki san’ati: etnografik va sotsiolingvistik tadqiqot” mavzusidagi dissertatsiyasida munosabat bildirilgan.

Jon H. Makdauell “Bolalar topishmog‘i” asarida (1979) topishmoqni “o‘ylab topilgan noaniqlikning qandaydir shaklini o‘z ichiga olgan so‘roqli kulgili tartib” deb ta’riflaydi. Saymon J. Bronner an’anaviy topishmoqlarni masxaralovchi topishmoq parodiyalaridan ajratadi. Danielle Roemerning 1995-yildagi tadqiqoti

og‘zaki va og‘zaki bo‘lmagan topishmoqlarni qamrab oladi. Topishmoqning sharmanda qiladigan turi ham bor. Masalan, “Bokira qizlar nonushta uchun nima yeyishadi?” degan topishmoqqa qiz bola hech narsa demasa, u bokira emas deb masxara qilinadi. Shuning uchun bu kabi topishmoqqa “non”, “tuxum” yoki boshqa nonushta taomining nomini aytish lozim bo‘ladi.

Bolalar uchun aytiladigan ertaklar, avvalo, qisqa hajmli, qiziqarli syujetga ega hikoyalardir. Ko‘pincha kattalar yoki kattaroq yoshdagi bolalar kichik bolalarga ertak aytib berishadi. Odatda, bolalar uyda yolg‘iz qolishdan cho‘chiydilar. Shuni inobatga olib, ba’zi ertaklarda shu haqda so‘z yuritiladi. *Bolalar miflari yoki (qo‘rqinchli ertaklari)* deb ham ataladigan bunday badiiy hodisalarda hayotda paydo bo‘lishi mumkin bo‘lgan xavf va muammolar haqida so‘z yuritiladi. Bolalar qo‘rqinchli hikoyalarining bir qismi o‘lim haqidagi hikoyalardir. Бунга инглиз болаларининг “Kartoshka chiplari va sut”, “Xitoy qo‘g‘irchog‘i” hikoyaларини мисол қилиш мумкин.

Folklorshunoslarning lager mif va afsonalari bo‘yicha tadqiqotlari, jumladan, Jeyms P. Lirining “Kamp Vapehani yirtqich hayvoni”, Li Xaring va Mark Breslermanning “Kropsi manyak”i va “Men Kropsi lagerida” asarlari bolalarning bunday qo‘rqinchli voqealarga qanday munosabatda bo‘lishini hujjatlashtirgan.

Bolalar uchun aytiladigan ertaklar bolalik dunyosiga xos obrazlar olamiga egaligi bilan ajralib turadi. Shunday ertarlarning “bolalar ertaklari” siftida ajratilishini o‘rinli, deb hisoblaymiz. O‘zbek folklorshunosligida bolalar ertaklarini kattalar ertaklaridan birinchi bo‘lib G‘.Jahongirov ajratgan. [22] Bunda u rus folklorshunosi A.I.Nikiforov taklifidan kelib chiqqan. G‘.Jahongirov fikricha, kichik (5-7 yoshdagi) bolalarga aytiladigan ertaklar ularni ovutish, fikrini biror narsaga jalb qilish maqsadida hikoya qilinadi. Olim ularni “cho‘pchak”, “taqlidiy ertak” deb ko‘rsatadi.[23]

Bolalar e’tiboriga havola qilinayotgan ertaklarning bosh qahramonlariga alohida diqqat qaratilishi ayonlashadi. Ertaklarning sehrli va fantastik qahramonlar asosida yaratilgan namunalari bolalar uchun qiziqarlidir.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi “**Ingliz va o‘zbek bolalar folklorida bolalar ijodkorligi va ijrochiligi”** sarlavhasi bilan berilgan. Uning ilk fasli *“Bolalar ijodkorligiga folklorning ta’siri”* deb yuritilgan. Kichkina bolalar xalqona qo‘shiqlarni dastavval ota-onalari, maktabgacha va boshqa tarbiyachilardan o‘rganadilar. “Twinkle, Twinkle Little Star” va “Maryam Little Lamb bor edi” kabi ba‘zi qo‘shiqlar Oksford bolalar bog‘chalari lug‘atida Iona va Piter Opi tomonidan keltirilgan.

Bolalarning ilk qo‘shiqlaridan biri alifbo qo‘shiqlaridir. Ular orqali bolalarga alifbo harflari o‘rgatilishi ko‘zda tutilgan. Bunday qo'shiqlar o‘yin-qo‘shiqlar sirasiga kiradi.

Bolalar o‘zlarini davolash va himoya qilish uchun ham qo‘shiqlar aytishadi. Masalan, ingliz bolalari qichitqi o‘t chaqqanda, joyiga barg qo‘yib, qo‘shiq aytadilar. Yoki ular uxlashga yotishdan oldin: “Mark, Matto, Luqo va Yuhanno,

[22] Жаҳонгиров Ғ. Болалар эртаклари // Ўзбек болалар фольклори. – Т.: Ўқитувчи, 1975. – Б.28.
[23] Жаҳонгиров Ғ. Болалар эртаклари // Ўзбек болалар фольклори. – Т.: Ўқитувчи, 1975. – Б.30-31.

Men yotgan to‘shak barakali bo‘lsin” deb duo aytishgan. Agar bu duoga qaramay, dahshatli tush ko‘rilsa, “jodugarning qizi” bezovta qildi deb, unga la’nat aytilgan.

O.Safarov aytib o‘tganidek, bolalar repertuarida ibtidoiy ajdodlarimizning qachonlardir animistik va totemistik etiqodlari asosida shakllanib, endilikda o‘sha mohiyatini yo‘qotgan *Yalinchoqlar* va *Hukmlagichlar* hamon yashamoqda. *Yalinchoqlar* mohiyatan tabiat hodisalari bilan bog‘liq bo‘lib, ibtidoiy animistik qarashlar zamirida vujudga kelgan va bolalarning mavsum-marosim qo‘shiqlari hisoblanadi. Ularda quyosh, oy, kamalak, yulduzlar, shamol, yomg‘ir va boshqa tabiat hodisalariga yalinish o‘z ifodasini topgan bo‘ladi. O‘zbek bolalari repertuarida bu jihatdan “Oftob chiqdi olamga” yalinchog‘i bir necha variantlarda keng tarqalgani kuzatiladi. Ingliz bolalar folklorida Shamol onaga murojaat yalinchog‘i uchraydi:

My Lady Wind, my Lady Wind,
Went round about the house, to find.[24]

Ushbu qo‘shiqda Shamol xonim nomi takror-takror tilga olinmoqda. U jonli personaj sifatida talqin qilinmoqda.

Hukmlagichlar qadimgi insonlarning totemistik e’tiqodlarini o‘zida saqlab kelayotgan qo‘shiqlardir. Ularda bolalarning qaysi bir hasharotga yoki qushga munosabati aks etadi. Ba’zan uning vositasida fol ochish an’anasi kuzatiladi:

Snail, snail, come out of your hole,
Or else I'll beat you as black as a coal.[25]

Hukmlagichda hasharotga so‘z bilan murojaat qilinib, u o‘z teshigidan tashqariga chiqishiga undalmoqda. Yo'qsa, teshigiga cho'g' solishdan ogohlantirilmoqda.

Bolalar kattalarning ko‘rsatmasisiz ham yaxshi narsalarga erishish maqsadida o‘zlarining marosimlarini bajaradilar, bayramlarini nishonlaydilar va kundalik hayotlariga zavq va hayajon qo‘shishga intiladilar. Shu o‘rinda yilning bir kuni “Bolalar bayrami” deb yuritilishi bejiz emasligi anglashiladi.

Ingliz bolalari qish tunida bir-biriga oq paypoq kiyib yotishni taklif qilishgan. Bu bilan yaxshi qor bo‘ronini kafolatlashlari aytilgan. Ishonuvchan bolalar esa qordek oppoq paypoq kiyib yotishadi. Bu marosim simpatik sehrga ishonchni ko‘rsatadi.

G‘ayritabiiy narsalar bilan bog‘liq marosimlar yilning istalgan vaqtida amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan. Qadimgi Yunonistondagi Pifagor davriga oid marosimlarda o‘liklar bilan aloqa qilishga harakat qilingan. Keyinchalik ular asosida bolalar ham o‘z o‘yin-marosimlarini tashkil qilgan. Bunda bolalar aylana hosil qilib o‘tirib, ruhlarning xabarlarini kutishadi. “Qonli Maryam” marosimi shulardan biri bo‘lib, unda Maryam ismini bir necha marta takrorlash orqali ruhni chaqirish ko‘zda tutiladi. Bu g‘ayritabiiy folklor hisoblanadi.

Bolalar badiiy ijodkorligining muayyan bir qismi bolalar taqvimi, ya’ni mavsum va marosimlarga aloqador bo‘lsa, qolganlari bolalarning turli xarakterdagi o‘yinlari bilan bog‘liqdir. Yana shunday poetik janrlar mavjudki, ularda

[24] Lang, Andrew, editor. *The Nursery Rhyme Book*. Illustrated by L. Leslie Brooke, Frederick Warne & Co., 1897, p. 71.
[25] Halliwell, James Orchard, editor. *The Nursery Rhymes of England*. 1st ed., James Nichols, 1842, p. 113.

bolalarning qo‘shiq ijrochiligi va ijodchiligi butun bo‘yi-basti bilan namoyon bo‘lgan. Zero, bolalar ijodkorligidagi qo‘shiqlarni mazmun-mohiyatiga ko‘ra: 1. Bolalarning maishiy qo‘shiqlari. 2. Bolalarning hazil qo‘shiqlari kabi ikki katta guruhga ajratish mumkin. Bolalar repertuarida qo‘shiqning aytishuvga asoslangan turi ham mavjud. Bunday qo‘shiqlarning kompozitsion asosini savol-javob tashkil etadi.

Uchinchi bobning ikkinchi fasli *“Maktab folklori”* deb atalgan. Hozirgacha o‘zbek folklorshunosligida bolalar folklori bolalarning yosh xususiyatiga qarab tasniflanmagan. Holbuki, bolalar folklori namunalari bolalarning yoshiga qarab, avvalo, kichik va katta yoshli bolalar folkloriga bo‘linadi. Uni yana bir necha turlarga bo‘lish mumkin: 1. Tug‘ilishdan 3 yoshgacha. (Bolaning beshik davri folklori). U chaqaloq yoki go‘dak bolalarga bag‘ishlangan folklor. 2. Maktabgacha yoshdagi bolalar folklori. 3. Maktab yoshidagi bolalar folklori yoki maktab folklori. U o‘z tarkibiga boshlang‘ich maktablar o‘quvchilari, yuqori sinfda o‘qiydigan o‘spirin va o‘smirlar folklorini qamrab oladi.

Rus folklorshunosligida maktab yoshidagi bolalarning og‘zaki ijod asarlariga nisbatan “школный фольклор”, ya’ni “maktab folklori” atamasi qo‘llangan va uning tarkibiga albom qo‘shiqlari, bolalar latifalari, grafitlar, parodiyalar, bolalar yashirin tili, sadist qo‘shiqlari kiritilgan.[26] Maktab folklori bolalar folklorining alohida tarkibiy qismi bo‘lib, turli yoshdagi bolalar dunyoqarashini o‘zida namoyon etadi. Mazmunan maktab hayotini, maktab yoshidagi bolalarning o‘zaro yoki o‘qituvchilarga munosabatlarini qamrab oladi. An’anaviy folklor uning asosiy manbasi hisoblanadi. Uning asosiy tashuvchilari 12-13 yoshli o‘spirinlardir.

1800-yillarning oxirida bolalar bir-birlarining avtograf albomlariga she’r yozishni boshlaganlar. Bunday *avtograf qo‘shiqlar* do‘stlikning muhimligini ifoda etishi bilan qadr kasb etdi. Unga yozilgan she’rlar “albom qo‘shiqlari” nomini olgan va sentimental xususiyatga ega bo‘lgan. Bunday albomlar tuzish 8-15 yoshli qizlar o‘rtasida keng tarqalgan. *Avtograf albomlar* maktab o‘quvchilari va talabalar orasida keng tarqalgani uchun avtograf qo‘shiqlar ham aynan ular orasida keng tarqalgan. Ba’zan avtograf albomlarda bolalar follaridan namunalar ham keltirilgani kuzatiladi. Masalan, quyidagi qo‘shiq mazmuni asalariga qarab fol ochishga ishora qiladi:

Bless you, bless you, bonny bee:
Say, when will your wedding be?
If it be to-morrow day,
Take your wings and fly away.[27]

Aytmoqchiki, baraka topsin, asalari. Ayt, qachon bo‘lar to‘y, Ertaga bo‘lsa, qanotingni olib uchib ket. Demak, asalari qanotini yoyib uchib ketsa, to‘ydan belgi bergan hisoblanadi.

Alifbo qo'shiqlari bolalarga harflarni eslab qolishlariga yordam beradi. Alifbo qo‘shiqlarning har bir satri alfavitdagi ma’lum bir harf bilan boshlanadigan so‘z

[26] Капица Ф.С., Колядич Т. – М.: Русский детский фольклор. Учебное пособие для студентов вузов. – М.: Флинта: Наука, 2002. – С.222-258.
[27] Harry's Ladder to Learning. 1850, p. 135.

vositasida davom etadi. U orqali bolalar har bir harfning alfavitdagi joylashish o‘rnini bilib oladilar. Ularning uzun yoki qisqa ko‘rinishlari uchraydi:

A Apple Pie. **B** bit it. **C** cut it. **D** dealt it.	**E** eat it. **F** fought for it. **G** got it. **H** hid it.	**J** jumped for it. **K** kept it. **L** longed for it. **M** mourned for it.	**N** nodded at it. **O** opened it. **P** peeped at it. **Q** quartered it.	**R** ran for it. **S** stole it. **T** tried for it. **V** viewed it. X Y Z &

Ushbu alifbo qo‘shiq har to‘rtta harfni bitta to‘rtlik qilib aytishga qaratilgan. ABCD, EFGH, JKLM, NOPQ, RSTV, XYZ kabi.

Maktab folklori namunasining tarkibida ko‘pincha maktab so‘zini uchratish mumkin.

O‘zbeklarda o‘tmishdagi eski maktablarning an’analariga ko‘ra, o‘quvchilar ustozlari yordamida Navro‘z, ramazon, qurbon va rajab hayitlari munosabati bilan hayitlik va navro‘zlik qutlovlari yaratganlar.

Uchinchi bobning uchinchi fasli *“Ingliz va o‘zbek bolalar o‘yin folkloridagi tipologik jihatlar”*ga qaratilgan. O‘yinlar yaxlit bir tizim tarzida bolalar folklorining alohida tarkibiy qismini tashkil etadi va bolalar o‘yin folklori nomi ostida guruhlanadi. Ular bolalar ijodkorlik salohiyatini o‘rganishda ayricha qimmatga ega. Talay o‘yinlar qo‘shiq bilan mantiqan bog‘langan holda kompozitsion jihatdan bir butunlikka erishgan. Bolalarni o‘yinga chaqirish, o‘yinni tashkil etishda chorlamalar, cheklashmachoqlar va sanamalar ijro qilinadi. Chorlamalar bolalarni o‘yinga chaqirish vazifasini bajaruvchi qo`shiqlardir. Ular she’riy ko‘rinishda uchraydi va o‘yin debochasi bo‘lib xizmat qiladi. Bunday aytimlar ingliz va o‘zbek bolalar o‘yin folklorida borligi kuzatiladi.

O‘zbek bolalar chorlamalari, odatda, “Bor-ho, kel-ho” degan hayqiriq undov bilan boshlanadi. O‘zbek folklorshunosligida chorlamalarning vazifasi va ijro xususiyatlari haqida dastlab G‘.Jahongirov va O.Safarovlar fikr yuritganlar.[28] Ingliz bolalarinung o‘gil-qizlarga murojaat qilib, “Boys and girls, come out to play”, ya’ni “Bolalar va qizlar, o‘ynashga chiqing” deb boshlangan qo‘shig‘ini bevosita o‘yinga chorlov ruhida bo‘lganligini inobatga olib, chorlama deb hisoblash mumkin. Yana shunday o‘yin jarayoni bilan bog‘liq qo‘shiqlar borki, ular o‘yin qismlarini bir-biriga bog‘laydi. Ulardan biri o‘yinning tugaganini ifodalovchi qo‘shiqlar bo‘lib, “tarqalmachoqlar” deb yuritiladi. Bubday aytimlar ham ingliz va o‘zbek bolalar folklorida teng uchraydi.

Bolalarning ikki raqib guruhga bo‘lingan holda o‘ynaladigan jiddiy musobaqa xarakteridagi o‘yinlaridan oldin cheklashmachoqlar aytiladi. Cheklashmachoqlar, odatda, ikki bolaning o‘zaro yashirincha kelishuvi, ya’ni til biriktirib o‘zlariga “ot qo‘yib” olishlari asosida yuzaga keladi.

O‘zbek bolalar folklorida	Ingliz bolalar folklorida
– Tog‘da bitgan olma kerakmi? Bog‘da bitgan bodom kerakmi?	Oranges and lemons, Say the bells of St. Clement’s.[29]

[28] Жаҳонгиров Ғ. Ўзбек болалар фольклори. – Тошкент: Ўқитувчи, 1975. – Б.101; Сафаров О. Ўзбек болалар поэтик фольклори. – Тошкент: Ўқитувчи, 1985. – Б.134-197.

[29] Halliwell, James Orchard, editor. *The Nursery Rhymes of England*. James Nichols, 1842, p. 120.

Sanamalar juda keng tarqalgan o‘yinboshi qo‘shiqlaridir. Ularning asosiy vazifasi, G‘.Jahongirov to‘g‘ri ta’kidlaganidek, “o‘yin boshlash oldidan boshlovchini, navbatchini” aniqlash, “biror bolaga gal berish”dan iborat.[30] Sanamalar sanoq sonlar yoki turli so‘zlarning takrorlanib kelishidan shakllanadi.

O‘zbek bolalar folklorida	Ingliz bolalar folklorida
Bir, ikki, uch, Samolyotda uch. Samolyotda uchmasang, Vertolyotda uch. Bir, ikki, uch.	One, two, three, I love coffee, And Billy loves tea, How good you be. One, two, three, I love coffee, And Billy loves tea.[31]

Ingliz va o‘zbek bolalar o‘yin folklorida raqamli sanamalar ko‘p uchraydi. Agar yuqoridagi sanamada birdan uchgacha bo‘lgan raqamlardan foydalanilgan bo‘lsa, boshqasida besh, yetti yoki o‘ngacha bo‘lgan raqamlar keltiriladi.

XX asr tadqiqotlari bolalarning xayoliy o‘yinlarining kengligini isbotladi. Quyon va itlar quvish o'yinida quyon sifatida belgilangan bola yashirinish uchun qochib ketadi, itlar deb ataladigan qolgan barcha o'yinchilar quyonni iloji boricha tezroq ta’qib qilishadi. Alan Dundesning “O‘yin morfologiyasi to‘g‘risida” maqolasida ushbu o‘yinga struktura nazariyasi qo‘llangan bo‘lib, u o‘yin tuzilishi va xalq ertaklari tuzilishi o‘rtasidagi qiziqarli farqni aniqlashga xizmat qiladi. Aryim o‘zbek xalq o‘yinlari syujetining ertaklar sysujeti bilan bog‘lanishi N.Safarova tomonidan ham ochib berilgan.[32]

Folklorshunoslar XIX asrdan boshlab bolalar va o‘smirlarning o‘pish o‘yinlarini o‘rganishdi. Brayan Satton-Smitning “Ogayodagi o‘smirlarning o‘pish o‘yinlari” (1972) “Spin the Bottle”, “Ko‘z qisish”, “Bo‘yinbog” kabi mashhur o‘yinlarning batafsil tahlilini taqdim etadi.

Arqondan sakrash yoki sakrash bolalarni o‘rta asrlardan beri qiziqtirib kelgan. Rojer Abrahams “Arqondan sakrash qo‘shiqlari: lug‘at”ida (1969) bibliografik iqtiboslar bilan sakrash qo‘shiqlarining ajoyib ro‘yxati taqdim etilgan. “Skipping” – “Sakrash” o‘yinida ikki qiz bir-biriga yuzma-yuz holda uzun arqonni aylantirib turishadi. Qolgan barcha qizlar birin-ketin, arqonga urilmasdan undan yugurib sakab o‘tishlari lozim bo‘ladi. Bu o‘yinning ham o‘z qo‘shig‘i mavjud.

Asliyatda	Tarjimasi
Keep the kettle boiling, Miss a beat, you’re out! Another game with the group involved one girl being invited in to skip, and then told to get out read for the next one: There’s somebody under the bed Whoever can it be	Choynakni qaynatib turing O‘tkazib yuboring, siz chiqib ketdingiz! Guruh bilan yana bir o‘yinda bitta qizni o‘tkazib yuborish taklif qilinadi, so‘ngra keyingi o‘yin uchun quyidagilar aytiladi: Karavot ostida kimdir bor, Kim bo‘lishi mumkin?

[30] Жаҳонгиров Ғ. Ўзбек болалар фольклори. – Тошкент: Ўқитувчи, 1975. – Б.95.
[31] Halliwell, James Orchard, editor. *The Nursery Rhymes of England*. James Nichols, 1842, p. 120.
[32] Сафарова Н. Ўзбек болалар ўйин фольклори (генезиси ва бадиияти). – Тошкент: Фан, 2008.

It makes me feel so frightened So xxxx come in with me. Xxx light the candle Xxx look under the bed, Get out you fool, get out you fool, There's nobody under the bed.[33]	Bu meni juda qo'rquvga soladi. Xxxx, men bilan kiring. Xxx, shamni yoqing, Xxx, karavot ostiga qarang, Chiq ahmoq, chiq, ey ahmoq, To'shak ostida hech kim yo'q.

Ushbu aytimning "Choynakni qaynatib turing" da'vati bilan boshlanishi, bizningcha, bejiz emas. Chunki bu o'yin juda jadal va tez harakatlanishni talab etadi. Unda "Xxxx" noma'lumining o'rniga o'yin ishtirokchilarining nomi qo'yib aytiladi.

"Marko Polo" o'yinining nomi XIII asr italyan savdogari va sayyohi tadqiqotchisi "Marko Polo" bilan bog'liq. Chunki u sayohatga chiqar ekan, qaerga ketayotganini bilmas edi. Bu esa o'yinchining xatti-harakatlari orqali aks ettiriladi. Marko Polo 1960-yillarda Amerikada suv o'yini sifatida tanilgan. Hozirgi kunda "Marko Polo" butun dunyoda o'ynaladi. Turli mintaqalarda o'yinning "Qoyalardagi suv parisi" va "Alligator" kabi nomlari bilan o'z versiyalari mavjud.

Dissertatsiyaning to'rtinchi bobi "**Ingliz va o'zbek bolalar folklorida so'z, hazil va badiiyatga munosabat"** deb nomlangan. Uning birinchi fasli *"Ingliz va o'zbek bolalarining so'z o'yinlari va hazil qo'shiqlari"* deb atalgan. Nutq o'yinlari bolalarning tilni boshqarishdagi quvonchini namoyish etadi. Topishmoqlar, tez aytishlar, turli hazil qo'shiqlar nutqiy o'yinni o'z ichiga olgan bo'lsa-da, folklorshunoslar bolalar xalq og'zaki ijodining bu shakllarini alohida janrlar deb tasniflaydilar. Bolalar nutq o'yinlarining ikkita ajoyib tadqiqoti – Barbara Kirshenblatt-Gimblett va Meri Sanchesning "Bolalarning an'anaviy nutq o'yini va bolalar tili" (1976) va J.Viddovsonning "Ritm, takrorlash va ritorika" (2001) kabi tadqiqotlarida ko'rib chiqilgan.

Tez aytishlar aslida kattalar og'zaki ijodiga xos hodisa bo'lsa-da, mohiyatan bolalar nutq .tarbiyasiga qaratilgan. Tez aytishlar tovush va so'z ustidagi poetik mashqlar hisoblanadi.

Peter Piper picked a peck of pickled peppers.
A peck of pickled peppers Peter Piper picked.
If Peter Piper picked a peck of pickled peppers,
Where's the peck of pickled peppers that Peter Piper picked?[34]

Ushbu tez aytishda "p" lab-lab nutq tovushi takroridan foydalanilgan. Piter Piperning tuzlangan qalampir tanlab olgani, u tanlagan tuzlangan qalampirdan bir bo'lak tanlagan bo'lsa, ular qaerda ekani so`ralmoqda.

Bolalar yumori qofiyadosh laqablarda va tegishmachoq janrida, satirasi esa masxaralama janrida bo'rtibroq turadi.

Ingliz folklorida masxaralar faqat katta yoshli bolalarga emas, yosh bolalarga ham qaratilishi kuzatiladi. Ularning biri "Chaqaloq, bolam" undovi bilan boshlangan bo'lib, dumalab-dumalab boshi sousga tushib ketgan bolakay mazax qilingan. Yig'layotgan bolani mazax qilib aytilgan masxaralamada u yig'layotgan

[33] Unidentified Group, and Herbert Halpert. Keep the Kettle Boiling. Lake Como, Pennsylvania. Photograph. Retrieved from the Library of Congress, <www.loc.gov/item/afc9999005.10760/>.
[34] Harris, John. *Peter Piper's Practical Principles of Plain and Perfect Pronunciation*. London, 1813, p. 2.

sigirga o‘xshatilgan. Unda bolaga to‘ppadan-to‘g‘ri “Yig‘layotgan sigir” deb murojaat qilingan. Ba’zi masxaralamada katta yoshlilar ustidan kulgi uyg‘otilgan:

Old woman, old woman, shall we go a-shearing?
Speak a little louder, sir, I am very thick o' hearing.
Old woman, old woman, shall I kiss you dearly?
Thank you, kind sir, I hear very clearly.[35]

Bu masxaralamada katta yoshli ayol – kampirning ishga taklif qilinganda eshitmasligini ro`kach qilib: “Biroz balandroq gapiring, janob, eshitishim juda qiyin” – deyishi, ammo “Sizni o‘psam maylimi?” deb so‘ralganda, “Rahmat, mehribon janob, men juda aniq eshitaman” deyishi kulgi holatini keltirib chiqargan.

To‘rtinchi bobning ikkinchi fasli *“Ingliz va o‘zbek bolalar folkloridagi o‘xshash syujet, motiv va obrazlar”* deb nomlangan. Ingliz bolalarining “Teddy Bear, Teddy Bear”, ya’ni “Ayiqcha, ayiqcha” deb boshlanadigan o‘yin qo‘shig‘i shakli va ifoda uslubiga ko‘ra, o‘zbek bolalarining “Quyoncham” o‘yin qo‘shig‘iga o‘xshaydi. Ularning har ikkalasi ham ma’lum bir jonzotga murojaat ruhidadir.

“Yashinmachoq” yoki “Bekinmachoq” / “Hide-and-seek” hamda “Quvlashmachoq” / “Tag” o‘yini ingliz va o‘zbek bolalari orasida qadimdan keng tarqalgan va hozirgacha saqlanib kelmoqda. Ularning qo‘shig‘i ham mavjud.

“Red Rover” o‘yini Buyuk Brutaniyada paydo bo‘lgan, keyin Rossiya va AQSH mamlakatlariga ham tarqalgan. “Red Rover yoki *qizil roverni yuboring” deganda “*player’s name”, ya’ni o‘yinchining ismiga ishora qilinadi. Uning o‘zbekcha o‘xshash o‘yin varianti – “Oq terakmi, ko‘k terak?” bo‘lib, har ikkalasi ham tarixiylik kasb etadi.

Ingliz bolalar o‘yinlarida ko‘pincha politsiya obrazi yaratilsa, o‘zbek bolalar o‘yinlarida militsiya yoki DAN xodimi obrazi gavdalantiriladi. Masalan, “Hippi va politsiya” o‘yinida o‘g‘il va qiz bolalar aralash o‘ynaydi. Unga ko‘ra, bir bola tutqun, boshqasi politsiyachi bo'ladi.

Ba’zan bolalar “Xavfli o‘yinlar”ni o‘ynaydi. “Ko‘chada yotish”, “Railroad Chicken”, ya’ni “Temir yo‘l tovug‘i”, “Jallod” shunday o‘yinlardandir. Ularda qo‘rquv va hayajonning kombinatsiyasi namoyon bo‘ladi.

To‘rtinchi bobning so‘nggi uchinchi fasli *“Tarjimada bolalar folklori badiiyatini saqlash muammolari”* deb sarlavhalangan. Tarjima amaliyotidan ma’lumki, joy nomlari va ismlar tarjimada aynan saqlanadi. Ular qaysi tilga tarjima qilinsa, o‘sha tilning imlosida grafik tarjima qilinadi. Ingliz bolalar qo‘shiqlarida London nomi, unga tegishli ko‘cha nomlari, Robin and Richard, Jek va boshqa inglizcha ismlar uchraydiki, ular tarjimada aynan saqlab qolinadi. Masalan, ingliz adabiy qahramoni Robinzon Kruzo nomi keltirilgan:

Poor old Robinson Crusoe! poor old Robinson Crusoe!
They made him a coat of an old Nanny goat,
I wonder how they could do so!

[35] Lang, Andrew, editor. *The Nursery Rhyme Book*. Illustrated by L. Leslie Brooke, Frederick Warne & Co., 1897, p. 71.

With a ring-a-ting-tang, and a ring-a-ting-tang,
Poor old Robinson Crusoe![36]

Pul birligini atovchi so‘zlar ham tarjima qilinmaydi:

I love sixpence, pretty little sixpence,
I love sixpence better than my life.
I spent a penny of it, I spent another,
And took fourpence home to my wife…[37]

Takrorga asoslangan quyidagi qo‘shiq matnini tarjima qilish qiyin emas. Bunga undagi takrorlar qulaylik tug‘diadi.

Polly Put the Kettle On Polly put the kettle on, Polly put the kettle on, Polly put the kettle on, We’ll all have tea.[38]	Polly Choynakni yoqing Polli choynakni qo‘ydi, Polli choynakni qo‘ydi, Polli choynakni qo‘ydi, Hammamiz choy ichamiz.

Ingliz tiliga tarjima qilingan o‘zbek bolalar folklori namunalarining janrlar tarkibi, asosan, beshik to‘yi bilan bog‘liq aytim-olqishlar, allalar, erkalamalar, o‘yin folklori kabilardan iborat. Ularning asliyatga muqobillik darajasini tadqiq qilish juda muhimdir.

Merilin Petersenning “A Treasury of Uzbek Legends and Lore” kitobida “Beshik qo‘shiqlari”, ya’ni *“The Cradle Songs”* **(**A Mother Who Couldn`t Sing the Cradle Song) degan maxsus bo‘lim bor bo‘lib, undan “Alla” haqidagi bir rivoyat matni tarjimasi o‘rin olgan.[39] Tarjimon ushbu matn tarjimasida “alla” so‘zini “Alla” ko‘rinishida transliteratsiya usulida ifoda etgan.

O‘zbek bolalar folkloriga xos alla (garchi boshqacha nomlansa-da), o‘yin, tez aytish, guldur-gup, topishmoq, ertak singari janrlar ingliz folklorida ham uchrashi, ustiga-ust bu janrlarning ayrim motiv va obrazlari mushtarak kelishi kuzatiladi. O‘zbek xalq allalarining inglizcha tarjima matnlarida “alla” so‘zi yo “*a cradle song”* – beshik qo‘shig‘i birikmasi, yo *“lullaby”* so‘zi bilan berilgan.

Ingliz tilidagi “lullaby” leksemasi bilan o‘zbek tilidagi “alla” leksemasining semantik strukturasi asosida “bolani uxlatmoq” semasi mujassamligi bois ularning denotativ ma’nolari umumiylikka (aynanlikka) ega. Lekin, milliy-madaniy jihatdan turlicha ijro o‘rniga va holatiga egaligi bilan bog‘liq an’anaviy ijtimoiy-tarixiy assotsiatsiya ularni farqlashga undaydi.

M.Petersen sanamalarni “*Nonsense words”,* ya’ni ma’no anglatmaydigan so‘zlar deb ko‘rsatgan.[40] U an’anaviy o‘zbek sanamalaridan ikkitasini tarjima qilgan. Ulardan biri “Abulakam, Dubulakam” o‘yini tarkibida keltirilgan. Ikkinchi sanama matni “*Dictama* **(***A nonsense word)”* o‘yini tarkibida uchraydi. Uni ham tarjimon “ma’nosiz so‘zlar” izohi bilan bergan.

Kuzatishlarimiz natijasida ingliz va o‘zbek bolalar o‘yin folkloridagi quyidagi egiz o‘yinlarni aniqlashga muvaffaq bo‘ldik: Oq terakmi ko‘k terak /

[36] Wright, Blanche Fisher, illustrator. The Real Mother Goose. Rand McNally & Company, 1916, p. 51.
[37] Wright, Blanche Fisher, illustrator. The Real Mother Goose. Rand McNally & Company, 1916, p. 98.
[38] Wright, Blanche Fisher, illustrator. The Real Mother Goose. Rand McNally & Company, 1916, p. 128.
[39] Petersen Marilyn. A Treasury of Uzbek Legends and Lore. – Tashkent: Qatortol-Kamolot, 2000. – P.122-123.
[40] Petersen Marilyn. Treasury of Uzbek Legends and Lore. – Toshkent: Qatortol-Kamolot, 2000. – P.150.

Red Rover; Quvlamachoq // Tag; Ko‘z yumarak // Blind Man’s Buff; Chiziqni bosma; Hopscotch; Tuta-tut (Yoshinma topaloq) // Hide and Seek yoki Sardines; Tiriltirma // Cocky Olly; Laylak uchdi – tuxum qo‘ydi // Red Hands; Ipdan sakrashma // Jump Rope; Kartoshka (To‘p otish) // Dodge Ball; Kartoshka va makaron (O‘rtaga tushish) // Keep Away va h.k.

Boshqa folklor janrlari singari bolalar folklori namunalari ham milliylikka yo‘g‘rilgani bois ularni tarjimada qayta yaratish oson kechmaydi.

XULOSA

1. Barcha xalqlari kabi ingliz va o‘zbek og‘zaki badiiy ijodida bolalar folklori ijodkorlari va ijrochilari kattalar hamda bolalar bo‘lib, alohida poetik tizim sifatida asrlardan buyon yashab kelmoqda. Bolalar folklori kattalar folklorining tarkibiy qismi sanaladi. U o‘ziga xos mavzulari, janr, obraz va motivlar tarkibiga ega. Bolalar folklori yosh avlod dunyoqarashi va tarbiyasi bilan bog‘liqligi jihatidan hamisha e’tibor markazida bo‘lib kelgan.

2. Ingliz va o‘zbek bolalar folklori namunalari, avvalo, shu xalqning madaniy hayot tarzi, milliy dunyoqarashi, yashash joyi, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy muhiti bilan bog‘liq holda yaratilgan bo‘lsa, ularning kelib chiqish ildizi, mazmuniy tasnifi, badiiy ifoda va ijro xususiyatlarida umumbashariy poetik tafakkurga xos mifopoetika, etnopoetika, tarixiy, nazariy, dinamik poetika xususiyatlari bilan bog‘langani kuzatiladi. Bu esa ularni maxsus to‘plash, chop etish va o‘rganish, poetik tahlil qilish, janrlarining o‘ziga xosligi, ijrochilik san’ati, yozma adabiyot, kinematografiya, postfolklor bilan bog‘liq tomonlarini ochishga undagan muhim omillardir.

3. Ingliz va o‘zbek bolalar folklori namunalari rang-barang janrlarda ifoda etilgan. Ularni kognitiv-pragmatik kesimda o‘rganish, badiiy-estetik tabiati, janrlar tarkibidagi uyg‘un va farqli tomonlarni asoslash imkonini beradi. Ingliz va o‘zbek bolalar folklorining genezisi, janrlar tarkibi, ularning ayrim motiv hamda obrazlari o‘zaro qiyoslanganda yaqin, o‘xshash, tipologik va farqli jihatlari borligi ayonlashdi. Shu asosda ularning an’anaviy jihatlari, yaratilish va qo‘llanish maqsadi, badiiy-stetik va ta’limiy-tarbiyaviy vazifalari oydinlashdi.

4. Ingliz va o‘zbek bolalar folklorida bolalarni parvarishlash, avaylash, uxlatish, erkalash, ovutish va tevarak-olam manzarasiga qiziqtirish, tabiat bilan tanishtirish maqsadida ijro qilinadigan onalik folklori poeziyasi shakllangan bo‘lib, ularda ona va bola ruhiyatining, bolalikning badiiy ifodasi bo‘rtib turadi.

5. Ingliz va o‘zbek bolalarining mavsumiy hamda marosimiy folklori shakllangan. Mavsumiy marosimlarda bolalarning tabiatdagi fasllar bilan bog‘liq o‘zgarishlarga munosabati aks etsa, maishiy marosimlarida turli narsalarga (yulduzlar, o‘simliklar, qushlar va hasharotlarga) bog‘lab fol ko‘rish), to‘y va motam marosimlariga taqlidan imitatsiya sahnalarini yaratish kabilar uchraydi.

6. Kattalar folklori bolalar folklorining shakllanishi va rivojlanishiga yetarli ta’sir o‘tkazgan. Bunda bolalarning taqlidchiligini alohida ta’kidlash lozim. Kattalar folkloridan bolalar repertuariga topishmoq, tez aytish, ertak janri

namunalari ko‘chgan. Bularning bari bolalar ijodkorligi va ijrochiligi, bolalar ijodkorligiga folklorning ta’sirini yorqin namoyon etadi.

7. Bolalar folklori tarkibida maktab folklorining alohida o‘rni bor. Maktab folklori o‘ziga xos tizimga ega bo‘lib, uning asosiy ijodkori va ijrochilari maktab yoshidagi bolalardir. Bunda boshlang‘ich sinf, o‘rta va katta yoshdagi maktab o‘quvchilarining qiziqishi va intilishlari ko‘rinib turadi. Maktab folklorida avtograf yoki “yoshlik albomi”, alifbo qo‘shiqlar yetakchi o‘rin tutadi.

8. Ingliz va o‘zbek bolalar o‘yin folklori yanada boy. Ularning har ikkalasida ham o‘yinga chorlov, o‘yin jarayoni, undan tarqalish, o‘yinchilarni sanash bilan bog‘liq qo‘shiqlarda tipologik jihatlar mavjud. Ingliz va o‘zbek bolalarining so‘z o‘yinlari hamda hazil qo‘shiqlari ham keng tarqalgan. Har ikkala xalqning bolalar o‘yin folkloriga aloqador sanama, cheklashmachoq, tarqalmachoq, tez aytish kabi janrlar badiiy strukturasida yaqinliklar mavjud.

9. Ingliz va o‘zbek bolalar folklorining qadimiy va hozirgi namunalari asosida ularning an’anaviy hamda zamonaviy turlari aniqlashadi. Insonlarning qarashlari, madaniy turmush tarzi, hukumat boshqaruvidagi o‘zgarishlar, yangicha fikrlash, poetik tafakkur tadrijining an’analarga ta’siri natijasida postan’anaviy, postfolklor sifatida yashashga kirishgani kuzatiladi. Ularning barchasi jahon xalqlari poetik xotirasining yorqin namunalari sifatida dunyo xalqlari folklorida o‘z o‘rniga ega.

10. Ingliz va o‘zbek bolalar folklori janrlari mazmuniga har bir davrning ijtimoiy-siyosiy hodisalari o‘z ta’sirini o‘tkazib borgan. Shakllanish va taraqqiyot jarayoniga boshqa xalqlar bilan ijtimoiy-madaniy aloqalari ham ta’sir ko‘rsatgan. Ikkala xalq bolalar folklorida ularga xos mavsumiy hamda oilaviy-maishiy marosimlaru urf-odatlar, bayramlar, fasllar almashinuvi, dala yoki chorva ishlarining boshlanishi yoxud yakunlanishi, mehnat turlari, kasb-hunarining o‘ziga xos badiiy tasviri bilan bog‘liq syujet, motiv va obrazlarni kuzatish mumkin.

11. Ingliz va o‘zbek bolalar folklorida satira va yumorga munosabat alohida ko‘zga tashlanadi. Ularda hazil, kulgi, masxaralash, chandish, kinoya alohida o‘ringa ega. Badiiy tilida qofiyadosh so‘zlar, ritorik vositalar qo‘llanilishi, ko‘pincha mubolag‘ali, allegorik tasvirlar asosida yaratilishi jihatidan ham tipiklik kasb etishi ayonlashadi. Obrazlar tarkibi va nomlanishida turli mifologik, zoomorf, ornitomorf, fitomorf, antroponimik aktorlardan foydalanilgan.

12. Ingliz va o‘zbek bolalar folklori juda boy, qadimiy va an’anaviydir. Ular tarkibidagi o‘yin folklori harakatni so‘z, predmet boshqariga qarab o‘zaro farqlanadi. Bunda aksariyat o‘yinlarning tashkil qilinishida, nomlanishida o‘xshashliklar borligi alohida diqqatni tortadi. Bolalar folklori namunalarida milliy til realiyalariga xos so‘zlar muhim o‘rin egallaydi. Ko‘pincha asar qahramonlarining yoki kishi ismlari (antroponimlar), joy nomlari (toponimlar), kasb-hunar nomlari (professionalizmlar), urf-odat, rasm-rusum nomlari (etnografizmlar), milliy-madaniy so‘zlar (lingvokulturemalar), o‘tmishga aloqador arxaik va tarixiy so‘zlar, dialektizmlar, pul birliklarini ifodalovchi so‘zlar tarjima jarayonida o‘girilmaydi va aynan saqlanadi.

SCIENTIFIC COUNCIL DSc.03/04.06.2021.Fil.72.03 AWARDING SCIENTIFIC DEGREES AT BUKHARA STATE UNIVERSITY

BUKHARA STATE UNIVERSITY

FAYZULLOEV OTABEK MUKHAMADOVICH

THE TYPOLOGY OF ENGLISH AND UZBEK CHILDREN'S FOLKLORE GENRE

10.00.06– Comparative literary criticism, contrastive linguistics and translation studies

DISSERTATION ABSTRACT
for a Doctor of Science (DSc) in PHILOLOGY

Bukhara – 2025

The theme of the dissertation for a Doctor of Science (DSc) in Philology was registered at the Supreme Attestation Commission under №B2023.4.DSc/Fil727.

The dissertation has been accomplished at Bukhara state university.

The dissertation abstract in three languages (Uzbek, English, Russian(resume)) has been placed on the website (www.buxdu.uz) of the Scientific Council and "ZiyoNet" Information and educational portal (www.ziyonet.uz)

Scientific advisor:	**Uraeva Darmon Saidakhmedovna** Doctor of Science in Philology, Professor
Official opponents:	**Akhmedov Oybek Saporbaevich** Doctor of Science in Philology, Professor
	Juraeva Malohat Mukhammadovna Doctor of Science in Philology, Professor
	Kayumov Olim Sadiriddinovich Doctor of Science in Philology, Professor
Leading organization:	**Samarkand State University**

The dissertation defense will be held on "21" June 2025 at 09^{00} at the meeting of the Scientific Council DSc.03/04.06.2021.Fil.72.03 at Bukhara State University (Address: 200118, Bukhara, M.Iqbol street, 11. Phone: (0365) 221-29-14; Fax: (0365) 221-27-57; e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz).

The dissertation is available at the Information-resource center of Bukhara State University, (registration number 612). Address: 200118, Bukhara, M.Iqbol street, 11. Phone: (0365) 221-25-87

The dissertation abstract is distributed on "26" May 2025.

(Mailing report № 25-17 on "26" May 2025).

M.K.Bakaeva
Vice Chairperson of the Scientific Council awarding scientific degrees, Doctor of Science in Philology, Professor

Z.I.Rasulov
Scientific Secretary of the Scientific Council awarding scientific degrees, Doctor of Science in Philology, Professor

F.M.Khajieva
Chairperson of the Scientific Seminar under Scientific Council awarding scientific degrees, Doctor of Science in Philology, Professor

INTRODUCTION (DSc thesis annotation)

Topicality and the necessity of the thesis. In world folklore studies, scientific attention has been given to children's folklore and its various genres, with a particular focus on the study of its unique themes, composition of images and motifs, as well as its creators and performers in the oral artistic traditions of different nations. Despite being passed down from generation to generation over centuries and playing a crucial spiritual and psychological role in the upbringing of younger generations, children's folklore is inherently connected to the cultural way of life, national worldview, and social environment of each nation. However, its genesis, classification, and artistic features demonstrate similarities characteristic of universal poetic thought. Identifying the foundations of these similarities from a comparative-typological perspective is of great significance for determining the mythopoetic, ethnopoetic, and linguopoetic, as well as historical, theoretical, and dynamic poetic development features characteristic of world children's folklore.

In world's comparative folklore studies, extensive research has been conducted in collecting and archiving children's folklore of different age groups, publishing it, examining its origins, research history, and theoretical aspects, analyzing its poetics, genre-specific characteristics, performance art, and its connections with written literature, cinematography, and post-folklore. In addition to determining the typological features of children's folklore on a global scale, this also serves to substantiate the universal laws governing the development of humanity's artistic and aesthetic thinking; to study English and Uzbek children's folklore from a cognitive-pragmatic perspective; to identify their artistic and aesthetic nature, the historical roots of their origin, their poetic evolution across time, their distinctive national characteristics, and their language based on the principles and methods of modern folkloristics; to establish their generic essence; to elucidate their genesis, similarities, and unique features in light of contemporary folklore standards; and, ultimately, to provide a scholarly explanation of the comparative study principles.

At the present stage, when large-scale reforms are being implemented to comprehensively advance science in our country, comparative folklore studies, as all other fields, are tasked with producing substantial research that meets global standards. One of these requirements is to strengthen "The preparation and integration of educational, methodological, and didactic materials (including games and toys) and literary works that reflect national cultural and historical values and foster an interest in reading from childhood into the activities of preschool educational institutions[1]". Within the framework of these studies, the comparative analysis of the ethnogenesis, mental nature, genre and imagery system, and linguistic characteristics of English and Uzbek children's folklore remains one of the pressing issues in comparative folklore and literary studies.

[1] Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2017 йил 9 сентябрдаги «Мактабгача таълим тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПҚ-3261-сон Қарори / Халқ сўзи. – Тошкент, 2017, 11 сентябрь.

The present scientific study serves to a certain degree to achieve the objectives set out in the following legal documents: Decree of the President of the Republic of Uzbekistan PF-5847 “On approval of the concept of development of the higher education system of the Republic of Uzbekistan until 2030” dated October 8, 2019; PF-5850 “On measures to further develop the Uzbek language and improve the language policy in the country” dated October 21, 2019; PF-6097 “On approval of the concept of development of science until 2030” dated October 29, 2020; PF-60 “On the development strategy of New Uzbekistan for 2022–2026” dated January 28, 2022; PF-158 “On the strategy ‘Uzbekistan – 2030’” dated September 11, 2023; the Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan PQ-5117 “On measures to bring the activities of popularization of learning foreign languages to a qualitatively new level in the Republic of Uzbekistan” dated May 19, 2021; the Resolution of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan No. 59 “On measures for organizing and holding the international folklore festival ‘Boysun Bahori’” dated February 7, 2022; and other related regulatory legal documents governing this activity.

Relevant research priority areas of science and developing technology of the Republic. The dissertation work is carried out in the line with the priority directions of Science and Technology Development of the Republic I. “Developing The Democratic And Legal Society Spiritually, Morally And Culturally, Forming Innovational Economics”.

A review of foreign research on the topic of dissertation:[2] Theoretical and practical research dedicated to the artistic structure, genre composition, poetic features, ideological structure, and principles of evolutionary development of children’s folklore is being conducted at leading scientific centers and higher education institutions worldwide, including Moscow State University, Saint Petersburg State University, Ural State Pedagogical University (Russian Federation), University of Harvard, Ohio State University (USA), University of Bonn (Germany), University of British Columbia (Canada), Peking University (Beijing, People’s Republic of China), Jyoti University (Japan), Academy of Korean Studies Grant (Republic of Korea), Yarmouk University (Irbid, Jordan), Muhammadiyah University of Surakarta (Indonesia), Ankara University, Ege University (Turkey), Baku State University, Folklore Institute of the Azerbaijan National Academy of Sciences (Azerbaijan), Eurasian National University, M. Auezov Institute of Literature and Art (Kazakhstan), Kyrgyz National University (Kyrgyzstan), as well as the Institute of Uzbek Language, Literature, and Folklore

[2] The review of foreign research on the dissertation topic was carried out based on the following sources: https://www.publishersweekly.com/pw/by-topic/industry-news/tip-sheet/article/; https://warwick.ac.uk /fac/arts/english/ currentstudents/ undergraduate/modules /fulllist/special/ https://cyberleninka.ru/article/n/problemy-razvitiya-i https://arts.unimelb.edu.au/nceis; https://www.westernsydney.edu.au;https://sllc.umd.edu/persian/about; http://nelc.uchicago.edu; https://nelc.osu.edu; http://ut.ac.ir; http://www.um.ac. ir; https://www.amu.ac.in; http://www.du.ac.in/du; http://www.istanbul.edu.tr/tr; https://www.ankara.edu.tr; http://gazi.edu.tr; https://www.orientalstudies. az/ru; http://literature. az/?lang=aze; http://www.kaznu. kz/ru; www.iaas. msu.ru; https://www.ivran.ru; https://spbu.ru; www.orient.spbu.ru/ru ; http://www.orientalstudies.ru; http://oriental-studies.org.ua/uk/home; http://zoa.dmt.tj; http://iza.tj/ru/institutyazyka-literatury-vostokovedeniya-i-pismennogo-naslediya-im-rudak-i; http://tashgiv.uz/ru/; http://navoiy-uni.uz/uzk; http://www.samdu.uz and other sources.

